

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi
kafedrası**

Fayziyeva Madinaoy Muratovna

Leksik uslubiyanı hosil qiluvchi vositalar haqida (boshlang'ich sinf "O'qish
kitobi" dagi matnlar asosida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____

TOSHKENT 2013

Reja:

Ishning umumiy tavsifi.....	2
Kirish. Leksik uslubiyat haqida umumiy ma'lumot.....	7
I BOB. Shakl va ma'no xususiyatiga ko'ra hosil bo'ladigan so'z guruhlarining uslubiy xususiyatlari.....	11
1.1 Omonimlarning uslubiy xususiyatlari.....	12
1.2 Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari.....	20
1.3 Antonimlarning uslubiy xususiyatlari.....	27
1.4 Paronimlarning uslubiy xususiyatlari.....	33
II BOB. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlarning uslubiy xususiyatlari....	37
2.1 Atamalarning uslubiy xususiyatlari.....	38
2.2 Shevaga xos so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	41
2.3 Eskirgan so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	44
2.4 Yangi so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	48
III BOB. Hissiy-ta'siriy bo'yoqdor so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	51
3.1 Ijobiy baho ifodalovchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	52
3.2 Salbiy baho ifodalovchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari.....	54
Xulosalar.....	56
Foydalanilgan ababiyotlarro'yxati.....	59

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

*Istiqlool yillarida o'zbek tilining qo'llanish
doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni
ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan
tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga
bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar,
o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar
ko'plab chop etilayotgani jamiyat taraqqiyotini
yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.*

Islom Karimov

Asrlar tutash kelgan ayni pallada yoshlarning tafakkur olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish, ta'lim-tarbiyani ularning ma'naviyatiga chuqurroq singdirish lozim ekan, ushbu zalvorli vazifani, albatta, biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z zimmamizga mamnuniyat ila olamiz. Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish mustaqil fikr egalari bugungi kunda O'zbekistonimizning mustaqilligini mustahkamlashda, uning dovrug'ini olamga tarannum etishda, yoshlarni buyuk tafakkur egalari qilib tarbiyalashda, avvalo, biz yetuk mutaxassis bo'lib yetishmog'imiz, olgan barcha nazariy bilimlarimizni amaliyot asosida boyitmog'imiz lozim. Kamina shu maqsadni ko'zda tutib, o'zimning bor bilimim va imkoniyatlarimdan foydalanib, leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar haqidagi ushbu bitiruv malakaviy ishimda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun aniq va tushunarli bo'lgan yo'l-yo'riqlarni izlab topishga harakat qilaman.

Prezidentimiz I.A.Karimov xalqning milliy madaniyatini va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta'kidlagan edi¹.

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008-yil, 83-bet.

O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi o'zbek tilining sofliги va so'z boyligi masalasining ko'tarilishiga turtki bo'ldi. Binobarin, o'zbek tilining mukammal qurilishini izchil tadqiq etish, uning o'zbekona tabiatini o'zga tillar tabiatidan ayriча ekanligini ochish va ko'rsatish ham umummilliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilining rivojlanishiga hissasini qo'shgan mutafakkirlarimizdan biri Alisher Navoiy bobomiz o'zining asarlari orqali ona tiliga hurmat, uning beqiyos boyligi va bo'yoqdorligini anglash tuyg'usini o'zbek xalqining qalbiga singdirgan.

“Ma'lumki, o'zlikni anglash milliy ong tafakkurining ifodasini, avlodlar o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi.”²

Prezidentimizning xuddi shu so'zlariga tayangan holda shuni aytib o'tishimiz lozimki, hozirgi kunda kollejlarda, litsey, maktab, universitet va institutlarda rasmiy dars jarayonida ba'zan sheva elementlaridan foydalanadi. O'qituvchilar adabiy til me'yorlariga rioya qilmayotganligi sababli bu masala dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Zero, bu o'rinda prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: “O'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.”³

O'zbekistonning mustaqillik solnomalaridagi 20 yillik istiqlol davri o'zbek tilining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilshi haqidagi Qonun qabul qilindi va bu qonun o'zbek tilining pasayib ketgan mavqeini tiklashga yo'l ochib berdi, uning ijtimoiy ahamiyatini oshirdi. Davlat tili haqidagi qonun 30 moddadan iborat bo'lib, o'zbek tilining har bir sohadagi huquqiy rolini tiklash vazifasi maqsad qilib qo'yilgan. Yangi tahrirdagi Qonun 24 moddadan iborat bo'lib, unda “O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir”,

² I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008-yil, 83-bet.

³ I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi”. T., 2000. 16-bet

degan jumlar 1-moddada berilgan. Shu bilan bir qatorda Konstitutsiyamizning 4-moddasida ham bu haqda yozilgan. Qonunda barcha rasmiy hujjatlar davlat tilida qabul qilinishi (8-moddada), barcha davlat va boshqaruv organlarida ish hujjatlari davlat tilida yuritilishi qayd etilgan.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilinganidan keyin mazkur Qonunning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda hech mubolag'asiz aytish mumkinki, tilshunos olimlar, adabiyotshunoslar faol va amaliy faoliyat olib bordilar.

Xo'sh, endilikda savol tug'iladi. Yetakchi olimlar, tilshunoslar tomonidan til qoidalarini ishlab chiqilgan ekan, bu kabi ilmiy ishlarni yoritishdan maqsad qanday? Bizlardan qanday natija kutiladi? Gap shundaki, zamon ildamlamoqda. Demakki, til ham olg'a boradi. Bugungi taraqqiyotga oid ilmiy yechimlar, texnika, texnologiya bilan bog'liq ixtisoslar bo'yicha atama lug'atlari va zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalariga, albatta, ehtiyoj seziladi. Biz o'zbek tilini o'qitishning eng yangi, samarali metodikasini tayyorlash, davlat tilini jadal o'rganishning kurslarini ishlab chiqishda tilshunos olimlarning madadiga ehtiyoj sezib turibmiz. Xalqning ko'p asrlik madaniyatini o'rganish uchun dastur bo'ladigan eski o'zbek yozuvini o'rganish muammosi ham kun tartibida turibdi.⁴

Shunday ekan, bizning bugungi kundagi eng muhim, eng samarali vazifamiz –jamiyatimiz a'zolarini, o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, barkamol inson qilib yetishtirish, o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'rgatish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat.

⁴I.A.Karimov."O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida."Tnoshkent.2011yil.

Men davlatimiz rahbarining yuqorida keltirilgan fikrlarining tasdig'i va mantiqiy davomi sifatida leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar haqida (boshlang'ich sinfdagi matnlar asosida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni yozishga qo'l urdim.

1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

Birinchi marotaba leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlardan olingan misollar yordamida ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

2. Tadqiqot ishining maqsadi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dan to'plangan materiallarga asoslangan holda matnlarda uchraydigan leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalarning turlarini, xususiyatlarini va ularni tahlil qilishni o'rganish ishdan ko'zlangan maqsad hisoblanadi.

3. Tadqiqot mavzusini yoritish davomida bajariladigan vazifalar.

Bu maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

1. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali uslubiyat va leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar haqida umumiy ma'lumot berish.
2. Shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi omonim, sinonim, antonim va paronim so'z guruhlarining uslubiy xususiyatlarini matnlarda uchraydigan so'zlar asosida tahlil qilish.
3. Qo'llanish doirasi chegaralangan birliklar, shevaga xos so'zlar, eskirgan so'zlar, yangi so'zlarning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish.
4. Hissiy-ta'siriy bo'yoqdor ma'nolarni beruvchi ijobiy, salbiy baho ifodalovchi so'zlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish.

4. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.

Mazkur tadqiqot ishida boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar birinchi marta tahlil qilindi va bu holatlarning boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish usullari birinchi marta bayon qilindi.

5. Tadqiqotning nazariy asosini ona tili bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, tilshunos olimlarning ilmiy asarlari tashkil etdi.

6. Tadqiqot obyekti bo'lib boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar hisoblanadi.

7. Tadqiqot metodlari sifatida tavsifiy tahlil, qiyoslash metodlar olindi.

8. Tadqiqot material bo'lib mavzu bo'yicha "O'qish kitobi"dan olingan misollar xizmat qildi.

9. Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tadqiqot yakunida chiqarilgan xulosalar boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"ga matnlar tanlashda mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2) boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslikdagi matnlarni chuqurroq tushunishga va ularni kichik yoshdagi o'quvchilarga tushuntirishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishim ishning umumiy tavsifi, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

1. Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot

Ma'lumki, uslubiyat - fikrni ifodalash yo'llari, til vositalarini – materiallarini to'g'ri tanlay bilish haqidagi ta'limot – uslublar ilmi bo'lib, bu uslublarga tilning vazifalariga mos ravishda bir necha ko'rinishlarga ega: so'zlashuv uslubi, kitobiy uslub, ilmiy - ommabop uslub, rasmiy, publitistik va badiiy uslub kabilar.

Stilistikadagi asosiy masalalardan biri til vositalarining stilistik bo'yoqqa ega ekanligidir. Stilistik bo'yoq obyektiv hodisadir. U har bir til elementidagi ma'nolarga jalb qilish, har bir til vositasining nutqda qanday maqsadlar bilan o'rinli yoki o'rinsiz qo'llanilishi va uning sabablarini aniqlashga qaratish lozim.

Stil so'zining ko'p ma'noliligini alohida aytib o'tish kerak.

Stilistika so'zi yunoncha **stylos** (uchi o'tkir qilingan tayoqcha) so'zidan yasaladi. Grek mirzo(xattot)lari shu stylos – maxsus tayoqcha bilan sirti mum bilan qoplangan taxtachalarga xat yozganlar. Bu tayoqcha ma'qul bo'lmagan ifodalalarni o'chirib, yangisini – yaxshisini yozish imkonini bergan. **Stil** so'zining arabchadan o'zlashgan sinonimi **uslub** so'zidir.

Stil (uslub) so'zi o'zbek tilida quyidagi ma'no va tushunchalarni bildiradi:

1. Biror yozuvchi yoki badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganuvchi soha: *Oybek stili, "Navoiy" romanining tili va stili.*
2. San'atkor ijodining yoki ma'lum davr san'ati va adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, belgilari yig'indisi: roman stili, qasida stili, doston stili.
3. Sintaktik va umuman adabiy til normalariga mos nutq qurilishi: *sodda, ravon stil, dag'al, g'aliz stil, stil kamchiliklari.*

4. Ish-harakat, faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari: rahbarlik stili, suvda suzish stili, gapirish stili. Xuddi shuningdek, nutq stilining quyidagi besh ko'rinishi mavjud:

Ilmiy stil. Bu stildagi nutq fikrning aniq, mantiqli bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham mantiqiy fikrlash, analiz va sintez ilmiy uslubning xarakterli xususiyatidir. Ilmiy sti adabiy til normalarini to'la saqlagan, aniq materiallarga boy, siqiq informativ nutq ko'rinishidir.

Ilmiy stilda yozilgan asarlar, odatda, ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan shug'ullanadigan mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi.

Masalan: *Morfemika – so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot – so'zning ma'noli qismlari morfemalar deyiladi. Morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) o'zak morfemalar; 2) affiksial morfemalar;*

Rasmiy-ish stili boshqa stillarga qaraganda siqiq va chegaralangandir. Bu uslubda so'z va iboralar aniq, qat'iy bir qolipda ishlatiladi.

Rasmiy-ish stilida yuridik hujjatlar, qonunlar, ustav, buyruq va qarorlar yoziladi. Rasmiy hujjatlarda nutq vositalarining standartligi va bir xilligi turlichadir. Jumladan, yuridik hujjat sifatida pasport, turli blankalar bir qolipda, bir xil formada bo'lsa, hisobot, qaror va buyruqlarning qat'iy bir qolipda bo'lishi shart emas.

Masalan: *O'zbekiston Respublikasi hududida tinchlikni yanada mustahkamlash maqsadida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.*

Publitistik stil davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, siyosiy nutqlar stilidir. Kundalik hayotning turli yomonlarini, aktual masalarini ommabop tarzda tushuntirib beradigan maqolalar shu stilda yoziladi. Publitistik nutq mantiqiy asosli bo'lishi bilan birga, jamoatchilikning fikri va yuragiga emotsional ta'sirli bo'lishi ham lozim.

Masalan: *Vatan uchun jangda jon olib, jon berayotgan o'zbek yigiti, bizni eshit! Sening Vataning bu kun Amudaryo bilan Sirdaryo orasigana emas, butun bir tuproq sening go'shang, makoning!*

So'zlashuv stili. Bu stildagi nutq ham hamma uchun umumiy va til vositalarini saylab ishlatishda erkindir. Bu stil rasmiy emasligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va asosan, dialogik xarakterdaligi bilan ham izohlanadi.

Masalan: ***Man sizga inak sog'ishniyam,- dedi Rayhonbibi do'stiga,- o't o'rishniyam, polizga qanday ishlashniyam o'rgataman.***

Badiiy stilda, asosan, badiiy asarlar yaratiladi. Badiiy nutq obrazli va emotsional-ekspressivdir. Bunda tilning kommunikativ funksiyasi bilan estetik-emotsional funksiyasi qo'shib ketadi. Badiiy uslubda til vositalarini saylashda tematik va uslubiy chegaralanish bo'lmaydi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan barcha xos elementlar ishtirok etadi.

Masalan: *Quyosh ufqqa sekin bosh qo'ydi. Maysalar ham havoda tebranib, alla kutayotgandek vaqt poylab, yer bag'riga boshini qo'ydi.*

Insonlar muloqot jarayonida bevosita turli xildagi til birliklaridan foydalanadilar. Ayrim hollarda esa ushbu til vositalarini o'zlariga qulay bo'lgan ko'rinishga keltirib oladilar va shu holatda muloqotga kirishadilar.

Bir so'z bilan aytganda, uslubiyat so'zlovchining bildirayotgan fikri maqsadga muvofiq bo'lishligini ifodalab, quyidagicha turlarga bo'linadi:

1. Leksik uslubiyat.
2. Fonetik uslubiyat.
3. Morfologik uslubiyat.
4. Sintaktik uslubiyat.

Quyida leksik uslubiyat, uning turlari hamda bu uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar haqida gap boradi.

2. Leksik uslubiyat haqida ma'lumot

Leksik uslubiyat - bu so'z qo'llashning aniqligi, so'zdagi denotativ (o'z) va konnotativ (ko'chma) ma'nolar, uning funksional stillarga munosabati, og'zaki va yozma nutqda so'zdan oqilona foydalanish omillari va shu ma'lumotlarga tayangan holda so'z ishlatish va so'z tanlashdagi tipik xatolarga yo'l qo'ymaslik demakdir.

Boshqacha qilib aytganda, leksik uslubiyat deganda leksik birliklarning uslubiy xususiyatlari tushuniladi. Leksik birliklarga esa omonim, sinonim, antonim, paronim, eskirgan va yangi so'zlar, sheva, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, mubolag'a (giperbola), sifatlash (epitet) kiradi.

Ma'no ko'chirishning metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqa turlari, ularning stilistik roli, ko'p ma'noli so'zlarning stilistik qo'llanilishiga misoldir.

Til materiallaridan foydalanib tuzilgan bir gap mazmun jihatdan, ta'sir doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Chog'ishtiring: *1. Bu voqeani hamma biladi. - Bu voqeani kim bilmaydi.* Ikkinchi gapda fikr kuchli va hayajonli ifodalangan. Ko'rinadiki, til hodisalarining funksiyasi turlicha: nominative (atash), kommunikativ (xabar qilish, darak), ekspressiv-emotiv (ifodalilik, hayajon, to'lqinlanish). Tilning asosiy funksiyasi informatsiya – kommunikatsiyadir. Emotsional-ekspressivlik unga qo'shimcha, yordamchi axborot bo'lib hisoblanadi.

I BOB. SHAKL VA MA'NO XUSUSIYATIGA KO'RA HOSIL BO'LADIGAN SO'Z GURUHLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ona tilini mukammal egallash uchun tilning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lish kerak. Chunonchi, shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra hosil bo'luvchi so'z guruhlari – omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar qo'shimcha emotsional-ekspressiv o'ttenkasi va stilistik belgilari, fikrni so'z vositasi bilan logik to'g'ri ifoda qilish usullari va shunga o'xshash masalalarni puxta bilish zarur.

1.1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari

Har bir tilning lug'at tarkibida tovush tarkibi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar muayyan miqdorda topiladi. Bunday so'zlar **omonim so'zlar** guruhini tashkil etadi.

Fonetik (tovush) tomondan bir xil - shakli o'zaro teng kelib qolgan ikki va undan ortiq so'zlar **omonimlardir**⁵. Omonimlar ma'no jihatdan o'zaro munosabatda bo'lmaydi – boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi. Masalan, *tut*-meva daraxti; *tut* - ushlamoq ma'nosiga teng harakatni bildiradi.

Omonim grekcha “**homos**” “bir xil”, “**onoma**” yoki “**onyma**” “**nom**” degan ma'noni bildiradi.

O'zbek tilida omonimlar turli ko'rinishlarga ega.

Masalan: *Chang* (to`zon) –*chang* (musiqasi), *yoqmoq* (chiroqni yoqmoq) – *yoqmoq* (uning nutqi menga juda yoqdi, “xush kelmoq, ma’qul bo’lmoq”) kabi barcha grammatik formalari teng, bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar **omonimlar** deyiladi.

⁵G'.Abdurahmonov,D.Xo'jayeva"Hozirgi o'zbek adabiy tili"Toshkent."O'qituvchi"2003yil

Boshqa bir adabiyotda⁶ shunday fikr berilgan:

“Tashqi tomoni (aytilishi va yozilishi) o’xshash ikki yoki undan ortiq so’z leksik omonimiyani hosil qiladi. Omonim so’zlar, iboralar va grammatik formalar doirasida bo’ladi.”⁷

Masalan: *Chaqaloqqa ot qo’ydi(nom).Ot kishnadi (hayvon). Onasini boshiga ko’tardi (sevdi, ardoqladi). Hovlini boshiga ko’tardi (to’polon qildi).*

1. *Qo’ling el aro uzun bo’lsa, sen o’z fe’l-atvoringni ezgu tut (saqla, ushla).*

2. *Daryo bo’yida tut o’sgan edi (daraxt).* (4-sinf “O’qish kitobi” Toshkent “O’qituvchi” 2002.35-bet.)

Bizga ma’lumki, *tut* so’zi omonim so’z bo’lib hisoblanadi. Ushbu misoldagi *tut* so’zi “tutib olmoq” ma’nosini berayotgani gap ma’nosidan ham anglashiladi.

Masalan: *Anvar tergan tut juda shirin ekan.* Bunda *tut* so’zi *tut* mevasini bildiradi.

Misol: *Hamma askarlarning otlariga ikki bog’lamdan shox-shabba bog’lashni buyuribdi* (2-sinf “O’qish kitobi” “El-yurt uchun kurashgan insonlar” hikoyasidan 13-bet)

Bu misolda *ot* omonimi qo’llangan bo’lib, bunda hayvon ma’nosini bilish mumkin.

Masalan: *Rasul jahli chiqqanicha, qo’lidagi gultuvakni otib yubordi.*

Bu misolda *ot* so’zi harakat ma’nosini ifodalab, fe’lga xos ravishdoshlik *-ib* qo’shimchasi qo’shilgan.

⁶

⁷E.Begmatov, A. Boboyeva, M. Asomiddinova, B. Umurqulov “O’zbek nutqi madaniyati ocherklari” 1988.27-bet.

Har xil ma'noda keluvchi shakldosh so'zlar arab tilida **tajnis** deb yuritiladi. "Tajnis – nazmga mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va san'atdur", -deb ta'riflagan edi Alisher Navoiy.⁸ Bu san'atdan shoir va yozuvchilar turli maqsadlarda foydalanadilar. Omonimlar she'riyatga alohida badiiylilik bag'ishlaydi. Omonimlar yordamida **tuyuqlar** yaratiladi. Bu sohada ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmatlari katta:

Yorab,ul shahd-u shakar,yo lab durur!
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur!
Jonima payvasta novak otg'ali,
G'amza o'qin qoshiga yolabdurur.

Bu tuyuqda "**yo lab**" uch ma'noda ishlatilgan:1) ot (lab) 2) fe'l (yalamoq) 3) fe'l (o'qlamoq).

Omonimlar kishini chuqur fikr yuritishga undaydi. Bir shakldagi so'zlarning ma'nosini o'ylab topishga majbur qiladi.

Ma'lumki, **ot** so'zi omonimdir. Bu so'zning xilma-xil ma'nosi quyidagi misralarda ochiq ko'rinadi:

Chun pari-yu,hurdir oting begim,
Sur'at ichra devdur oting begim.
Har xadanggukim,ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting begim (Navoiy)

Bu she'rning birinchi va ikkinchi misralaridagi **ot** so'zi ot turkumiga mansub. Birinchi misrada **ot** pari va hur nomli tabaqaga tegishli degan ma'noni, ikkinchi misrada hayvonning bir turi (ot) ma'nosini beradi. So'nggi misrada esa **ot** buyruq maylidagi fe'lning ikkinchi shaxs birlik shaklidir.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning 4-sinf "O'qish kitobi"darsligi (36-sahifa)da berilgan "Odamdan nima qoladi" nomli hikoyasida shunday misralarga ko'zimiz tushadi:

⁸E.Begmatov,A.Boboyeva,M.Asomiddinova,B.Umurqulov"O'zbek nutqi madaniyati ocherklari"1988.27-bet.

*Yomonlik go'yo o't,yondirar,yoqar,
O'tishga kechig yo'q-u soy tez oqar.*

Ko'rinib turganidek, birinchi misradagi **o't** so'zi "gulxan", "olov" ma'nosida, ikkinchi misradagi **o't** so'zi esa "hatlamoq", "bir joydan ikkinchi joyga o'tish" ma'nosini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu kabi hikoya va hikmatli so'zlarning o'qitilishi tarbiyaviy nuqtai nazardan olib qaralganda, katta ahamiyatga ega. Bu ularda odamiylik, insof, diyonatning ilk kurtaklari shakllanishi uchun zamin vazifasini o'taydi, desak xato bo'lmaydi.

Omonimlarning yuzaga kelishi to'g'risida turlicha qarashlar bor. Ba'zi olimlar ko'p ma'noli so'zlarning ayrim ma'nolari bir-biridan ajrab ketishi natijasida ("semantik yo'l bilan") ma'nosi har xil va tovush tarkibi, aytilishi bir xil bo'lgan so'zlar yuzaga keladi desalar, ikkinchi guruh olimlar ma'nosi azaldan har xil bo'lgan so'zlar keyinchalik tasodifiy ravishda tovush tarkibi va talaffuzi jihatdan bir xil bo'lib qolgan deyдилar.

Har holda, ko'p ma'noli so'zlar bilan omonimlar genetik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lsalar ham, o'ziga xos belgilariga ko'ra ular bir-biridan farq qiladilar. So'z bir xilda talaffuz etilib, ma'nolari ko'p va bu ma'nolar orasida o'zaro bog'lanish bo'lsa, bunday so'zlar ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar sanaladi. Bunga so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi ham kiradi. So'zlar bir xil aytilsa-da, ma'nolari bir-biri bilan bog'lanmasa, bunday so'zlar shakldosh so'zlar yoki omonimlar guruhiga kiradi. Masalan: *tut* (tut daraxti) va *tut* (tut mevasi) ko'p ma'noli so'zdir. Ammo *tut* daraxti va mevasi ma'nosidagi *tut* so'zidan tashqari yana buyruq maylining ikkinchi shaxs birlik formasidagi *tu t* (ushla) so'zi ham bor, endi bu so'z o'sha mevali daraxt ma'nosidagi *tut* so'ziga omonimdir.

*Boychechakni **tutdilar**,
Tut yogochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.*

(4-sinf "O'qish kitobi", Boychechak she'ri 51-bet.)

Bunda birinchi qatordagi **tutdilar** so'ziningo`zagi *ushla* ma'nosida, ikkinchi qatordagi *tut* so'zi esa tut daraxtining kesilgan qismi ma'nosini bildiradi.

Ko'p ma'noli so'zning turli ma'nolari va ma'no ottenkalari bo'lib, bu ma'nolar bir-biriga yaqin va aloqadordir. Omonimlardagi ma'nolar orasida aloqa, munosabat yo'q. Masalan, *uya* so'zi asosan parrandalar kirib o'tadigan va tuxum qo'yadigan joyni bildiradi. Ammo *kalamush, ilon, ari* kabilar joyi ham *uya* deyila beradi. Bu so'z yana ko'chma ma'noda ham qo'llanadi: *bir uya qovun* kabi. Demak, *uya* so'zi ko'p ma'noli so'zdir. Biroq, *ochqich* so'zining ma'nolari: 1) *qulfning kaliti*, 2) *lug'atlarda so'z manbalarini ko'rsatuvchi bo'lim* ma'nolarida bunday bog'lanish ochiq sezilmaydi. Shuning uchun bular omonimlar deb qaraladi.

Omonimlar tuzilishi jihatdan: 1) sodda omonimlar - o'zak-negizlarning o'zlaridangina iborat bo'lgan omonimlar: *til, yuz, ich, tor* kabi; 2) morfemali (turli xil yasovchi va turlovchi affikslar bilan ishlatiladigan) omonimlar: *yoziq, yozmoq, kechmoq, sirli* kabi; 3) qo'shma so'z shaklidagi omonimlar: *oqsoqol, oqqush* kabi.

Omonimlar dastlab ikki asosiy guruhga ajraladi:

- 1) to'liq yoki sof omonimlar;
- 2) qisman yoki vazifaviy (ya'ni, faqat vazifasi jihatidan shakldosh bo'lgan) omonimlar.

Asl manbai bir so'z uyasidan kelib chiqqan, lekin keyinchalik ma'no munosabatlari uzilgan so'zlar to'liq yoki sof omonimlar guruhiga kiradi. Bu xil omonimlar ko'p ma'noli so'zlarning rivoji natijasida yuzaga kelgan va

asosan bir xil soʻz turkumiga mansubdir. Masalan: *kun* (*quyosh* va *vaqt oʻlchovi*), *oy* (*yerning yoʻldoshi* va *vaqt oʻlchovi*) kabi.

Maʼnosi azaldan boshqa-boshqa boʻlgan, turli soʻz turkumlariga oid va turlicha affikslar bilan qoʻllanadigan, tasodifiy ravishda aytilishi bir-biriga oʻxshab qolgan soʻzlar qisman yoki funksional omonimlar hisoblanadi. Masalan: *ot*, *oʻt*, *tut*, *tur*, *tush*, *uch*, *kir*, *oylik*, *uloq*, *ekkan* kabi soʻzlar funksional omonimlar gruppasiga kiradi. Bu xil omonimlarni baʼzi tilshunos olimlar omoforma yoki omonimik soʻzlar nomi bilan yuritadilar.

Shuningdek, "Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati" nomli kitobida berilgan baʼzi soʻzlarning turli xildagi maʼnolarini keltiramiz:

1. **Boshliq** –oyoq kiyimining taglikka birlashtiruvchi qismi hisoblanadi.

Misol: *Oyogʻimga yangi boshliq solib bersangiz.*⁹

2. **Boshliq** - bosh boʻluvchi, rahbar, ishboshi.

Misol: *Boshliq hali komandirovkadan qaytgani yoʻq. Uni brigadaga boshliq qilib tayinladilar.* (Hamid Gʻulom, Binafsha atridan)¹⁰

Boshqa bir misolga eʼtibor qaratamiz:

1. **Burch** (asli bur –"qayir, bura" maʼnosida) –biror narsaning ikki tomoni birlashadigan joy, muyulish degan maʼnoda keladi.

Namuna sifatida: *Ahmadjon xotiniga ishonadi. Ishonadi-yu... baribir, koʻnglining bir burchida shubha, rashk iloni qimirlaydi.* (Hamid Gʻulom, "Binafsha atri"dan)¹¹

2. **Burch** –oʻtash lozim boʻlgan vazifa.

⁹Sh.Rahmatullayev "Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati" Toshkent "Oʻqituvchi" 1984yil, 35-bet.

¹⁰Sh.Rahmatullayev "Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati" Toshkent "Oʻqituvchi" 1984yil 35-bet

¹¹Sh.Rahmatullayev "Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati" Toshkent "Oʻqituvchi" 1984yil 38-bet,

Masalan: *Modomiki shunday ekan, u turmushda, oilada o'z **burchini** bajarishi ham amri mahol edi!*¹².

Omonimlarning uslubiy bo'yog'ini she'riy timsollarda gavdalandiramiz:

*Kishining ko'rki **yuz**-u, bu **yuzning** ko'rki **ko'**zdur.*

*Odam bo'lay desang, uzoqni **ko'**zlab ish qilgil.*

Yuz sonlar ichida yaxlit bir butun son bo'lib hisoblanadi.

(4-sinf "O'qish kitobi" 37-bet.)

Yana bir she'riy misol:

*Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.* (E. Jumanbulbul)

Bu parchada **ot** 1) nom, shuhrat, dong; 2) tark etmoq, tashlamoq; 3) hayvonning bir turini bildiradi.

Shoir Habibiy tuyuqlaridan:

*Yoz g'animat, yerni hayda, dona **soch**,
Keksalik kelmay, oqarmay boshda **soch**.
Qushchalar bog'imda yayrab sayrasin,
Eng go'zal qushdur chug'urchuq ichra **soch**.*

Birinchi misradagi **soch** so'zi *sochmoq* fe'lining o'zagi, ikkinchi misradagi *soch* – kishi boshidan o'sib chiqqan qil, to'rtinchi misradagi *soch* qushning bir turini anglatadi.

Boshlang'ich 2-sinf "O'qish kitobi" darsligida *sochmoq* ma'nosini beruvchi jumlar keltirilgan:

¹²Sh. Rahmatullayev "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" Toshkent "O'qituvchi" 1984 yil 38-bet,

*Jilmayadi o'zida yo'q shod,
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak-etak olib koinot,
Yulduzlarni **sochar** boshingdan.
(11-bet.)*

*Bog'ing atrofiga o'tqaz tol-u **tut**,
Yurma behuda,o'zingni yaxshi **tut**.
Tok uchun tol ek,bo'lur bir kun kerak,
Uy ipak birla bezalgay,pilla **tut**.*

Birinchi satrdagi *tut* daraxt, ikkinchi satrdagi *tut* buyruq fe'li va to'rtinchi satrdagi *tut* boqmoq ma'nosidagi fe'lning o'zagidir.

*Asl dehqon bo'lib,ishla to'kib **ter**,
Oq oltin boyliging,o'z vaqtida **ter**,
Yana kechki qovunni oq qirovda
Uzib omborga keltirar;poy tikib **ter**.*

Birinchi misradagi *ter* kishi tanidan oqqan tomchi, ikkinchi misradagi *ter yig'*, *to'pla*, to'rtinchi misradagi *ter* tartib bilan sirala, joyla ma'nosida qo'llangan.

Xulosa sifatida shuni aytilish mumkinki, omonimlar shakli bir, ma'nolari boshqa-boshqa so'zlar hisoblanib, bir xil aytilishi va bir xil yozilishi jihatdan boshqa leksik vositalardan farqlanadi. Omonimlarning qaysi so'z turkumiga oidligi ularning ma'nosiga, yangi so'z yasash usuliga, grammatik xususiyatlariga qarab belgilanadi. Demak, omonimlarning muayyan so'z turkumiga mansubligi ularning ma'nolari va grammatik belgilariga bog'liq.

O'zbek tilidagi omonimlar ma'no xususiyatlariga ko'ra turlichadir. Ular ikkitadan to olti-yettitagacha yetib boradi va har biri o'z oldiga alohida ma'no bildiruvchi mustaqil so'z sanaladi. Omonimlardan o'tmishda klassik shoirларimiz she'riyatda juda ustalik bilan foydalanganlar. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asarida *tush*, *yon*, *bor*, *tuz*, *ko'k* kabi

omonimlarning ma'nolarini maxsus ko'rsatib o'tadi. Chunonchi, *bor* omonimi o'zaro yaqin aloqasi bo'lmagan to'rt xil ma'noda qo'llangan: 1) *bor* – mavjud; 2) *bor* – buyruq shaklining ikkinchi shaxs birligi; 3) *bor* – yuk; 4) *bor* – hosil, meva.

Shunday qilib, omonimlar adabiyotda, tilshunoslikda o'zining ma'no qirralari, uslubiy xususiyatlari, so'z bo'yoqdorligi va so'z o'yinlarini hosil qilish bilan ahamiyatga ega bo'lgan leksik vosita bo'lib, omonimiya hodisasi, o'z navbatida, kishilarning tushuncha doirasini kengaytirib, so'zlar ma'nosining bir-biridan uzoq bo'lishi ulardan satira vositasi sifatida foydalanish imkonini yaratadi.

1.2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari

Sinonim so'zi grekcha "synonymos" so'zidan olingan bo'lib, "bir nomli" degan ma'noni bildiradi.

Ma'nolari bir xil yoki o'zaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar **sinonim** hisoblanadi. Masalan, *chiroyli, go'zal, xushro'y, ko'rkam, suluv, zebo* so'zlari shaklan boshqa-boshqa bo'lsa ham, ma'no e'tibori bilan kishining tus ko'rinishini ifodalaydi. *Sabr, toqat, chidam, to'zim* so'zlarining umumiy ma'nosi "sabr qilish", "chidash"dir. Shuningdek, *tur, nav, xil, jins* so'zlari; *gulshan, chamanzor, gulzor* so'zlari; *qayg'u, alam, dard, kulfat, tashvish, zahmat* so'zlari ham ba'zi ma'noviy xususiyatlari bo'lishidan qat'i nazar, umumiy ma'noga egadir. Shuning uchun ular sinonimlarning belgili bir turi (gruruhini)ni tashkil etadi.

Sinonimlarning leksik (*katta, ulug', buyuk, gigant*), frazeologik (*terisiga sig'madi – boshi osmonga yetdi*), morfologik (*-yap, -moqda: boryapti – bormoqda*), sintaktik (*Ona bolasiga qayg'urdi – Ona bolam deb qayg'urdi*) kabi turlari mavjud. Ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'z va ibora ham o'zaro sinonim bo'ladi (*xursand – do'ppisini osmonga otdi*).

Misol: *Dehqonbobo ranjibdilar va: - **Kuchim, quvvatim** borida insonlarga yordam berishim kerak, sizga ham shu maslahatni beraman, - debdilar.* (2-sinf “O’qish kitobi,” “Dehqonbobo” hikoyasidan, 23-bet.) Bu yerda *kuch* va *quvvat* so’zlari leksik sinonimga misol bo’ladi.

Sinonimlarni qo’llashda hissiy-ta’siriy bo’yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi yuz so’zi ma’nosi betaraf so’z bo’lsa, *bet, aft* so’zlari salbiy bo’yoqqa ega, bashara so’zida esa salbiy bo’yoq yanada kuchli, turq so’zida bashara so’ziga nisbatan ham kuchliroqdir; chehra ijobiy bo’yoqqa ega, jamol so’zida bo’yoq yanada kuchli. Shuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo’lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo’ysafid* sinonimik qatoridagi qari so’zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan.

Masalan: *Sen o’zbek elining **farzandi**,
Istiqlol yurtining **dilbandi**...* (4-sinf “O’qish kitobi”, 7-bet.)

Ushbu misolda *farzand* va *dilband* so’zlari kontekstual sinonim so’zlar hisoblanadi. *Dilband* so’zi badiiy uslubga tegishlidir.

O’zaro umumiy ma’nosi bilan birlashib, stilistik bo’yog’i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar **stilistik sinonimlar** deyiladi.

Masalan: ***Saharlab** turaman, qutlayman **tongni**,
Bo’ynimga osilar, **subh** shamoli.* (3-sinf, “O’qish kitobi”, 39-bet)

Bu gapda **sahar, tong, subh** so’zlari kunning boshlanish paytini bildiruvchi sinonim so’zlar hisoblanadi.

Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so’zlar, iboralar va formalar ma’no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Chog’ishtiring: *og’ir, qiyin, mushkul; yalqov, dangasa, landavur, lapashang.*

Misol: *Tinchlik, sokinlik haqida*
Kuylasam qo'shiq,
Ovozim yangrar
Yana ham jo'shib. (2-sinf "O'qish kitobi", 18-bet)

Bu yerda sinonimik qatorni *tinchlik, sokinlik* so'zlari tashkil etadi.

Maqol: *Kitob - xazina,*

Bilim - **boylik.**

(2-sinf "O'qish kitobi", "Kitob" matnidan, 30-bet)

O'zaro sinonim bo'lgan so'zlar bu yerda *xazina* va *boylik* so'zlaridir.

Bir joyda xaroba, tashlandiq kulbani kor'ib, o'sha yerda
to'xtashibdi. (2-sinf "O'qish kitobi", 33-bet)

Xaroba va *tashlandiq* so'zlari sinonim bo'lib hisoblanadi.

Sinonimlar ikki so'zdan tortib toki yeti-sakkiz, yoki o'ndan ham ko'p so'zni o'z ichiga oladi. Chunonchi:
- ikki so'z: *keksa, qari; ma'no, mazmun; chora, iloj, tadbir*; - uch so'z: - to'rt so'z: *uyalmoq, iymanmoq, tortinmoq, orlanmoq*;

-besh so'z: *tayyor, muhayyo, shay, taxt, hozir; qalbaki, soxta, yasama, sun'iy, yolg'on*;

-olti so'z: *ovoz, tovush, un, sado, sas, bong; chidam, bardosh, sabr, toqat, tob, to'zim*;

-yetti so'z: *ovqat, taom, oziq, tomoq, yemish, ne'mat, xo'rak*;

-sakkiz so'z: *ozgina, picha, sal, xiyol, jindak, qitday, andak, jichcha*;

Masalan: *Shahar markazi aholi bilan gavjum edi.*

(2-sinf "O'qish kitobi" 9-bet)

*Ko'rkam va ozoda bekatlar hamisha **odamlar bilan** gavjum.*

(2-sinf, "O'qish kitobi", 10-bet)

Sinonimlarning eng muhim va o'ziga xos belgisi unda ma'no asosiy va yetakchi rol o'ynashidir. Shuning uchun ham sinonimlar so'zlarning ma'no kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Olimlar tomonidan sinonimlar ta'rifiga alohida ahamiyat berilishi bejiz emas.

Misol: **Mustaqillik** ne demak,
Ne demakdir **Istiqlol**?
Buni bilmog'ing kerak,
Ma'nosini dilga sol.

(2-sinf "O'qish kitobi" 6-bet)

Namuna: Qizingni ko'chaga chiqarma, **oftob uradi**, yurgizma - oyog'iga tikan kiradi.

(1-sinf "O'qish kitobi" 10-bet.)

*Uning yuzlari **oftobda qoraygan**, shunga qaramay, ko'rkam, suluv edi.*

Bu ikkala misoldagi *oftob uradi* va *oftobda qoraygan* so'zlari sinonim hisoblanadi. 1-misoldagi "*oftob uradi*" birikmasi ibora bo'lib hisoblanadi.

Sinonimlarning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ikki narsani bir-biridan farqlash zarur:

- 1) tushuncha va so'z, ularning o'zaro munosabati,
- 2) so'z va uning ma'nolari, har bir so'zning o'ziga xos ma'no bo'yog'i.

Tushuncha predmet, belgi, voqea, hodisa, harakat, jarayon va shu kabilar haqida kishilarning tasavvuri bo'lib, so'z shularning ma'lum tovush kompleksi vositasida tilde voqelanishi demakdir. Tushuncha so'zga, so'z esa tushunchaga to'la ravishda mos kela bermaydi. So'z tushunchaning aynan o'zi bo'lganda edi, tushuncha hamma joyda va dunyodagi hamma tilda faqat

bir xil tovush kompleksi bilangina ifodalangan bo'lur edi. Aksincha, har tilda tushunchaning ifodasi boshqa-boshqadir.

So'ngra, so'z tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyati va muhim tomonini, asosiy xususiyatlarinigina aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va boshqa xususiyatlari boshqa so'lar bilan ifodalaniladi. Shu sababli tilda ma'nodosh so'zlar vujudga keladi.

Namuna sifatida: *Hayratlanarlisi shundaki, u yerda **na guvillagan** va **na g'uvillagan** tovush eshitilardi.*

(4-sinf "O'qish kitobi" 8-bet)

Sinonim sifatida ko'rsatilgan bu so'zlar fe'l turiga mansub bo'lgan leksik sinonimlar hisoblanadi.

Sinonimlar tuzilishi jihatidan uchta asosiy gruppaga ajratiladi:

1. Sodda sinonimlar. Bu xil sinonimlar o'zakdan, negizdan yoki o'zak va negizdan tashkil topadi. Shunga ko'ra soda sinonimlar bir necha ko'rinishga ega:

1) o'zakning o'zi bilan ifodalangan sinonimlar. Bular tub so'zli sinonimlar deb yuritiladi. Bir sinonimik qatordagi so'zlar nuqul o'zaklardan iborat bo'ladi: *katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan, gigant; odam, kishi, inson, bashar;*

Misol uchun: *Katta, ulug' odamlar ko'p buyuk ishlarni qilishga qodirdirlar.*

Ushbu gapda *katta, ulug', buyuk* so'zlari sinonim so'zlar hisoblanadi.

Misol: *Qir, adir, o'tloqlari,*

Gul-lolaga to'liqdir.

She'r tarkibidagi *qir, adir* so'zlari ot turkumiga mansub bo'lgan sinonim so'zlar hisoblanadi.

2) o'zakka turli morfologik elementlar qo'shilishi bilan ifodalangan sinonimlar. Bunda bir sinonimik qatordagi so'zlar nuqul negizdangina iborat bo'lmog'I mumkin; *sonsiz, sanoqsiz, cheksiz, hisobsiz; kuchli, quvvatli, baquvvat;*

Misol: *Agar jami insonlar fikrdosh, maslakdosh bo'lsalar, hayotlari ham farovon bo'ladi.* (3-sinf, "O'qish kitobi", 45-bet)

3) bir sinonimik qatorda tub va yasama so'zlar aralash kela oladi: *arang, bazo'r, zo'rg'a, zo'rg'atdan; batafsil, mufassal, mukammal, to'la, to'liq, to'lig'icha;*

Anvar bo'lgan voqeani bobosiga batafsil, to'lig'icha gapirib beribdi.

(4-sinf, "O'qish kitobi", 53-bet)

2) murakkab shaklli sinonimlar. Bu xil sinonimlarning ayrimlari qo'shma so'zlardan tashkil topadi. Shuningdek, murakkab sinonimlarning ba'zilari juft holda ishlatiladi, ba'zilari esa nutqda parallel ishlatiladi.

1) qo'shma, yasama, tub so'zlardan tashkil topgan sinonimik qatorlar: *dovyurak, botir, qo'rqmas, jasur.*

Masalan: *Dovyurak, botir* insonlarga hamma havas qiladi, bolam.

(1-sinf, "O'qish kitobi", 42-bet)

2) juft holda ishlatiladigan sinonimlar: *el-yurt, baxt-saodat, kuch-quvvat, omon-esson, sog'-salomat, or-nomus* kabi.

Misol: *El-yurt uchun, xalqing uchun* yaxshi inson bo'lishing kerak. (3-sinf, "O'qish kitobi", 56-bet)

3) tillar biridan ikkinchisi so'z olganda ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar ham o'tib qoladi. Masalan, *respublika* va *jumhuriyat* kabi. Shu xilda ma'nolari o'xshash so'zlar o'rtasida ma'lum davrgacha kurash boradi, nihoyat, biri g'olib chiqadi.

Misol: *Oldin jumhuriyat deya atalgan atama o'rnini endilikda respublika atamasi to'ldirmoqda.*

3) birikmali sinonimlar. Sinonimik qatordagi so'zlar orasida so'z birikmalari orqali ifodalangan sinonimlar ham uchraydi. Ular bir so'z hukmidagi birikma va so'zlardan tashkil topadigan sinonimik qatorlar (*farq qilmoq, tafovutqilmoq, farqlamoq*).

Misollar: *Xushchaqchaq, quvnoqqina bir sichqoncha bor ekan. U suyukli onajonisi bilan birga qishloqdagi eng **baland**, eng **ulkan** uyning kavagida yashar ekan.* (4-sinf, "O'qish kitobi, "Odobli bo'lish osonmi?" hikoyasidan, 150-bet)

Shoirilar va adiblar o'z asarlarida sinonimlarning turli variantlaridan keng foydalanadilar. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Shoir Hamid Olimjon she'rlaridan:

*Bahri anglar mehnatning sirin,
Baxt qidirar halol mehnatdan,
Oppoq paxta, kollektiv hayot,
Qutultirar azob, uqubatdan.*

*Hamma **xursand**, o'zida yo'q **shod**,
Yetganiga shundayin damga;
Bahrini uzatar kolxozi
Toshkentdagi katta bayramga.*

Xulosa qiladigan bo'lsak, sinonimlar nutqni ta'sirchan bayon qilishda hamda uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashuvchi sinonim so'zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg'ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan stilistik ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Sinonimlarning material asosi turlicha bo'lib, ular umumiy ma'nolari asosida o'zaro bog'langanlar; har bir sinonimik guruhga kirgan so'zlar ma'no bo'yog'iga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Demak, sinonimlar deyilganda xarakteri jihatidan turli, lekin biror xususiyatiga ko'ra yaqin bo'lgan predmet, voqea, hodisa anglatuvchi so'zlar emas, balki voqea-hodisa, predmet yoki ularning belgisini har tomonlama tasvirlab beruvchi so'zlar ko'zda tutiladi.

1.3 Antonimlarning uslubiy xususiyatlari

Antonim so'zi grekcha “**anti**” “**zid**”, “qarama-qarshi”, “onoma” yoki “onyma” “nom” degan ma'noni bildiradi.

Antonimlar ikki so'z orasidagi qarama-qarshi ma'no munosabatini ifodalaydi. Boshqa bir adabiyotlarda, qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. Masalan: *ota-ona, opa-singil, aka-uka, katta-kichik, uzoq-yaqin, achchiq-chuchuk kabi.*

Namuna: *Dunyoga kelgan **chaqaloqdan** tortib, **keksalargacha** ularning tinchligi, sog'ligi, nafaqasi kafolatlangan.* (4-sinf “O'qish kitobi” 6-bet)

Ushbu gapdagi *chaqaloqdan keksalargacha* so'zlari ot turkumiga mansub bo'lgan antonim hisoblanadi.

Antonimlar so'z ma'nolari o'rtasidagi ziddiyatni, qarama-qarshilikni ifodalaydi, nutqda stilistik vosita sifatida qo'llanadi

Misol: *O'tgan davr mobaynida **yoshi ulug'lar** ham, **yoshi kichiklar** ham qayta tug'ildi.* (4-sinf, “O'qish kitobi”, 4-bet)

Bu gapda qo'llanilgan antonimlar sifat so'z turkumiga mansubdir.

Bir soʻzning boʻlishli va boʻlishsiz formalari antonim soʻzlardagi kabi zid, qarama-qarshi maʼno munosabatini hosil qilmaydi. Antonim boʻlishi uchun ikki soʻzning zid leksik munosabati boʻlishi shart.

Antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi soʻzlarda uchraydi (sifatlarda, ravishlarda): *oq-qora, uzoq-yaqin, doʻst-dushman, yaxshi-yomon*.

Misol: *Shunga oʻxshatibdi sinagan odam,
Sinagan odamga ayondir olam.*

***Yaxshi** nom oladi, koʻr, ezgu kishi,*

***Yomonlar** nasibi – el-yurt qargʻishi.*

(4-sinf “Oʻqish kitobi”, Yusuf Xos Hojib, “Odamdan nima qoladi?”, 36-bet)

Yaxshi va *yomon* soʻzlari sifat soʻz turkumiga tegishli boʻlgan antonym soʻzlardir.

Misol:

***Yomonlar** goʻyo oʻt,yondirar,yoqar,*

Oʻtishga kechig yoʻq:u soy tez oqar.

***Yaxshilar** ezgular, dilga xush yoqar,*

Toabad ularga yoʻldosh boʻl magar. (4-sinf “Oʻqish kitobi” , 36-bet)

Miqdor, vaqt, oʻrin, harakat-holat maʼnolarini ifodalaydigan soʻzlarda zidlash maʼnosi kam boʻladi (ravish, ot, sifat, feʼl). *Oz-koʻp, baland-past, kecha-kunduz, kulmoq-yigʻlamoq*. Shunga koʻra, antonimlar sifat, ravish soʻz turkumlarida koʻp uchraydi. Feʼllarda antonim hosil qiluvchi soʻzlar juda kam, son, olmosh, modal va yordamchi soʻzlarda umuman yoʻq.

Misol: **Kulish** – inson umrini uzaytiradi, **yigʻlash** esa insonni tarbiyalaydi.

Tirik oxir olar qora yer quchib,

Nom ezgu esa-chi, ketarmi oʻchib?!

Ikki xil nom qolar tilda begumon:

*Biri **yaxshilig-u**,birisi **yomon**.*

***Dono maqtov** olar, **nodon-chi** – **soʻkish**,*

Oʻzing oʻyla, senga maʼqul qaysi ish? (4-sinf “Oʻqish kitobi”35-bet.)

Antonimlar juft holda qo'llanganda, zid tushuncha ifodalanmay, ma'no umumlashadi.

Misol: *To'yga **do'st-dushman** keladi.*(hamma)

***Erta-yu kech** fikrim shu*(doim).

*Qishloqning butun **katta-kichigi** Omonboqi hovlisiga to'plandilar.*

(4-sinf, "O'qish kitobi", 58-bet)

Antonimlar yozma va og'zaki nutqda katta ahamiyatga ega. Ular fikrini ta'sirli va ifodali qiladi. Shuning uchun ham ular ko'pincha publitistik va badiiy uslubda ishlatiladi: *urush va tinchlik, o'liklar va tiriklar.*

Masalan: "*Urush va tinchlik*" rus adabiyotining yorqin misolidir.

Antonimik holat so'z birikmalarida ham bo'ladi: *baland bo'yli semiz qari kishi – past bo'yli oriqliq yosh kishi; qizil rangli katta chamadon-rangli kichik chamadon.*

Misol: *Baland bo'yli semiz qari kishi qo'lida chamadon tutgan, ko'rinishining g'irt teskarisi bo'lgan **past bo'yli oriqliq yosh kishini** ko'rib, taajjublanganicha, unga savol nazari bilan tikilar edi.*

***Baland bo'yli kishi** Anvardan u qayerda turishini so'radi.* (3-sinf, "O'qish kitobi", 28-sahifa)

Past bo'yli kishilar baland bo'yli kishilarga havas qiladilar.

Ushbu gapda sifat turkumiga tegishli antonym so'zlar ishtirok etgan.

Antonimlar badiiy adabiyotda tasvir vositalaridan biri antiteza (qarama-qarshi qo'yish) usulida ishlatiladi. Antiteza usulida yozuvchi va shoirlar biror shaxs yoki voqea haqida ma'lumot beradi va bu shaxs yoki voqeaga nisbatan kitobxonda simpatiya yoki antipatiya uyg'otadi. Keyingi

tasvir jarayoni esa yuqorida paydo bo'lgan hissiyotning aksi bo'lib chiqadi.
A.Qahhorning "To'yda a'za" bunga yaqqol misol bo'ladi:

"...nihoyatda istarasi issiq,nihoyatda dilkash chol...Muxtorxon domla nafsambiriga (haqiqatan) odamning joni edi.Uning xushfe'lligi,to'poriligi... mahallada katta-kichik hamma hamma bilan salomlashar,yoshi bilan yosh,qari bilan qari bo'lib gaplashar edi".Kunlardan bir kun mahallada duv-duv gap:"Muxtorxon domla uylanarmish".Shundan keying holat:"Muxtorxon domla faqat o'ziga emas,butun mahallaga husn bag'ishlaydigan soqolini qirdiribdi,boshida chamandagul do'ppi,egnida kalta va tor shim,katak ko'ylak,yengini baland shimargan istirohat bog'ida ikki shisha piyvo ustidan yuz gramm araqni bir otib,parkning orqasidagi jin ko'chaga kirib ketibdi".

Domla xarakteridagi o'zgarishlarga sabab o'zidan taxminan uch barobar yosh juvonga – yigirma yoshlardagi o'z studentkasiga uylanayotgan ekan. Voqeadan ko'rinadiki, antitezada qarama-qarshi qo'yish orqali o'quvchi – kitobxon hissiga ta'sir kuchli formada ifodalaniladi. Poeziyada holat va hodisaning ichki ziddiyatini ochishda,xarakterlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda ham antonimlardan keng foydalaniladi:

*Ey jafogar,bir **vafo** qilkim,ikkovlon bo'lg'obiz
Men jafo chekmakdan-u sen **bevafolig'din** xalos.(Navoiy)
Ot turkumiga tegishli antonimlar ushbu misralarda qatnashgan.*

***Yaxshi** otga qamchi bossang,kishnaydi,
Yomon-chi,yol silasang,tishlaydi.
Har qancha gap bo'lsa **do'sting** ko'tarur,
Dushman – chayon,yaqinlashsang nishlaydi. (Oltmish O'sarov)*

Antonimlardagi kontrastlik xalq maqollarida ochiq ko'rinadi:

1. *Ko'z **qo'rqqoq** – qo'l **botir**.* (1-sinf, "O'qish kitobi", 28-bet)
2. ***Yaxshi** topib,**yomon** qopib gapirar.* (2-sinf, "O'qish kitobi", 38-bet)

3. *Bir kattaning gapiga, bir kichikning gapiga kir.*
(2-sinf “O’qish kitobi”45-bet)

Antonimlar o’z xususiyatlariga ko’ra to’la va yarim(oto’la) hamda kontekstual bo’ladi. Yarim antonimlarda emotsionallik kuchli bo’ladi. Chunki bular kontekstda kutilmagan yangilik bo’yoq’I hosil qiladi.

Chog’ishtiring: *kichik-katta-gigant: kichik –gigant* noto’liq antonim bo’lib, unda nafaqat kattalik, balki hajm jihatidan ortiqlik ham mavjuddir. Xuddi shuningdek, yarim antonimlar juftligida neytral so’z ham emotsional bo’yoq olib semantik jihatidan kengayadi.

Chog’ishtiring: *kulgi -yig’i:*

Misol: *Kulgidan o’zini zo’zg’a tiydi.*

(4-sinf, ”O’qish kitobi”, 47-bet)

Yig’idan *Botirning ko’zlari shishib ketgan edi.*

(3-sinf, ”O’qish kitobi”, 34-bet)

Qah-qahalar yig’iga aylanadi misolidagi *yig’i qah-qaha* so’zi ta’sirida emotsional bo’yoq olgan. Noto’liq antonimlik so’z va ibora orasida ham mavjud bo’lib, bunda ta’sirchanlik yanada yuqori bo’ladi.

Masalan: *xafa –og’zi qulog’ida,shod –qovog’idan qor yog’adi.*

Masalan: *Dildora oyisi unga atab olib kelgan sovg’ani ko’rib, og’zi qulog’iga yetdi.* (4-sinf”O’qish kitobi”39-sahifa)

Og’zi qulog’iga yetdi-frazeologik so’z hisoblanishi yuqorida ham aytib o’tildi.Ma’nosi “xursand bo’ldi” demakdir.

Misol: *Ravshan bu qilgan ishi noto’g’ri ekanligini bilib, xafa bo’ldi.*

(3-sinf”O’qish kitobi”25-bet)

Kontekstual antonimlar ma'lum bir kontekstdagina o'zaro antonym bo'ladi. Bunday holatda ulardagi inkor ta'sirchanligi yanada yuqori bo'ladi. Chunki ular nutq jarayonida paydo bo'ladi. Konteksual antonimlar uchun muayyan qolip bo'lmaydi, ular tez-tez o'zgarib turadi. Yozuvchilar yorqin badiiy obrazlar yaratish, nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida bunday antonimlardan o'zni bilan mohirona foydalanadilar:

Misol: *U taqdiriga tan berdi, **zaharini** diliga solib, **asalini** tiliga chiqarib kitob magaziniga ishga kirdi.*

*Rayhonning tili **asalday shirin**, dugonasi Ra'noning esa tili **zaharday achchiq**.*

(4-sinf "O'qish kitobi" 37-bet)

Xulosa qiladigan bo'lsak, antonimlar ikki so'z orasidagi qarama –qarshi ma'no munosabatini bildiradi. Masalan, *katta –kichik, yosh-qari, issiq-sovuq, yaxshi-yomon.*

Masalan: *Yaxshi ham ,yomon ham bir joyga boradi, bolalarim. Bu gapimni uqib oling.* (4-sinf "O'qish kitobi" 25-bet)

Badiiy asarlarda, xalq maqollari va hikmatli so'zlarda antonimlar emotsional va ekspressiv – stilistik vosita sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o'tkirligi uchun xizmat qiladi.

Masalan:

Bilimli kishi o'zar, **bilimsiz** kishi to'zar. (1-sinf "O'qish kitobi" 18-bet)

Borliq yarashtirar, **yo'qlik** talashtirar. Gap bilan **shoshma**, ish bilan **shosh**.

Do'st achitib gapirar, **dushman** kuldirib. (3-sinf, "O'qish kitobi", 19-bet)

Yomonni tanqid qiladi, yaxshiga taqlid qiladi. Mard bir o'lar, nomard ming o'lar.

Demak, antonimlar bir-biriga zid bo'lgan so'zlarning ketma-ketlikdagi qatoridir. Ular bir-biriga teskari bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi.

1.3. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari

Paronimlar tovush jihatidan butunlay teng bo'lmasa-da, lekin aytilishida birmuncha o'xshash bo'lgan so'zlardir. Yoki boshqacha qilib aytganda, fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan **paronimlar** deyiladi. So'zlarning o'zaro bunday munosabatda bo'lish hodisasi **paronimiya** deyiladi.

Masalan: *fakt –pakt, afzal –abzal, amr –amir, adresat –adresant, diplomat –diplomant* va boshqalar. Demak, paronimiya adabiy normada talaffuz etmaslik, adabiy talaffuz normasini, shuningdek, so'zning fonetik strukturasi to'g'ri bilmaslik natijasida sodir bo'ladi.

Misol: *Shoh cho'ponning boshi tanasidan judo etilishiga **amr** etdi.*

(4-sinf "O'qish kitobi" 53-bet)

Yuqorida paronimiya va paronimlar haqida to'xtalgandik. Shu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida shuni aytish mumkinki, har bir konkret tilde obyektiv ravishda faqat til faktlarigina emas, balki bu faktlarga doir kategoriyalar ham mavjud bo'lib, ular obyektiv mavjud bo'lmagan sof abstraktsiyalar¹³ yoki hozirgi zamonaviy talqinda til modellarining kategoriyalaridir.

Masalan: *Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, hatto qushga ham birovning hashamdor qasridan, o'zining vayrona uyasi **afzal** ekaligini tushunamiz.*

¹³Bu haqda qarang :Бодуен де Куртене Й.А.Избранные труды по общему языкознанию.Том I.М.,1963,стр.60.

(2-sinf "O'qish kitobi" Saddi Iskandariydan 13-bet)

Yuqorida aytib o'tildiki, paronimlar noto'g'ri talaffuz qilinishi natijasida yuzaga kelgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga esa to'g'ri imlo qoidalarini o'rgatish muhim bo'lganligi boisdan bu leksik vositaga kamroq to'xtalamiz.

Xulosa o'rnida leksik paronimlarning xususiyatlarini ifodalovchi, ammo mukammallikka da'vo qilmaydigan ta'rifini keltirmoqchimiz:

Talaffuzi(fonetik ifodasi) o'xshash, ammo lug'aviy ma'nosi farqli o'zakkdosh leksemalar paronimlar deyiladi. Paronimlarning o'zaro leksik-semantik munosabatda bo'lishi esa paronimiyadir.

II-BOB. QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

O'zbek tilining lug'at boyligidagi barcha so'zlar nutqda qo'llanish ko'lami doirasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Hozirgi o'zbek tilining leksik tarkibida asosiy qismni tashkil etuvchi so'zlar hammaga tushunarli bo'lgani uchun shu til vakillari ularni birday qo'llaydilar. Shu bilan birga tilda shunday so'zlar ham mavjudki, ularni ma'lum hududda, joyda yashovchilarning yoki muayyan kasb-hunar egalarigina o'z nutqlarida ishlatadilar.

Masalan: *bor, yo'q, bir, yer, suv, havo, olmoq, bermoq, kulmoq* kabi so'zlarni o'zbek tilida so'zlovchilarning barchasi o'z nutqida qo'llasa, *birinj, satil, zardolu* so'zlarini Buxoro va Samarqand hududida yashovchilar, *so'zaq, bodraq, gashir* so'zlarini Xorazmda yashovchilar qo'llaydilar; *fond, kartoteka, alfavitli ko'rsatkich katalog* kabilarni kutubxona xodimlarigina faol ishlatadilar. Shunga ko'ra, hozirgi o'zbek tili leksikasi ikki turga ajratiladi:

1. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksika.

Til lug'at boyligining nutqda ishlatilish doirasi jihatdan chegaralanishi turli xil bo'ladi. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksika ishlatilishi hududga ko'ra cheklangan so'zlarga, ishlatilishi kasb-hunarga qarab chegaralangan so'zlarga, ishlatilishida eskilik yoki yangilik bo'yog'i borligiga ko'ra farqlanadigan so'zlarga, biror ijtimoiy guruh nutqidagina ishlatiladigan so'zlarga va ekspressiv-uslubiy bo'yoqdorligiga ko'ra qo'llanilishi cheklangan so'zlarga ajratiladi. Quyida shu haqda so'z boradi.

2.1. Atamalarning uslubiy xususiyatlari

Atamalar (terminlar¹⁴) fan, texnika, madaniyat kabi sohalardagi aniq chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan bir ma'noli so'z yoki so'z birikmalaridir.

Masalan: *karta, globus, atlas, materik, ko'rfaz, o'zan, dara, bo'g'oz tizma, tog', yassi tog'* kabilar geografik terminlardir.

Terminlar ma'lum bir aniq tushunchani ifoda etadi. Ular dialekt va shevaga oid so'zlardagi kabi fonetik, leksik va morfologik ko'rinishlarga ega bo'lmaydi. Terminlar, odatda, barcha sheva vakillari uchun umumiy bo'ladi va kasb egasi qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, hamma joyda bir xilda qo'llanadi va yoziladi.

Kasb-hunarga xos so'zlarning asosiy qismini shu sohaga xos atama (termin)lar tashkil etadi. Masalan, *klub, to'garak, havaskor, sahna, rejissiyor, rol, uslubiyotchi, mikrofon* kabi so'zlar barcha klub xodimlari nutqida faol qo'llanadi.

Misol: *Ahmad bilan Nargiza havaskor o'quvchilar sifatida to'garakka qatnashdilar.* (4-sinf'O'qish kitobi 34-bet)

Atamalarning ko'pchilik qismini ruscha-baynalmilal so'zlar tashkil qiladi: *abzast, abonent, abonement, ariya, bayan, defis, dialog, disgarmoniya, dirijyor, pauza, partiya, oratoriya, duet, general-bas, general pauz* kabilar. Bunday so'zlar jami maxsus leksika-terminologiya(atamashunosligi) deb yuritiladi: fizika terminologiyasi, lingvistik terminologiya kabi.

Masalan: *Partiyalar jamiyatning rivojida o'zining munosib hissasini qo'shmog'i lozim.*

¹⁴ Termin – lotincha terminus – “chegara”belgisi,”chek”.

Atamalar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvch so'zlar bo'lsa-da, lekin bu so'zlarning qo'llanilishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan bo'lishi shart emas. Bunda ikki holatni ko'rish mumkin:

1. Atamalarning ma'nosi sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ular tomonidan ham qo'llanilaveradi. Masalan: botanikaga oid *bug'doy, paxta, o'rik, g'o'za, uzum, nok*; san'atshunoslikka oid *sahna, afisha, aktyor*; tibbiyotga oid *ukol, narkoz, gripp* kabi so'zlar.

Masalan: Afisha shaharlarni to'ldirdi.

3. Atamalarning ma'lum qismi shu terminga oid bo'lgan soha kishilari uchun tushunarli bo'ladi va shular nutqida qo'llanadi: tilshunoslikka oid *morfema, fonema, urg'u, o'zak*; kimyoga oid *oksidlar, indikator* kabi.

Misol: O'zak –so'zning asosi, negizi hisoblanadi.

Shuni aytilish kerakki, umumiste'moldagi so'zlar ma'lum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi so'z sifatida qo'llanishi, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u so'z dastlabki ma'nosi (yoki ma'nolari) bilan umumiste'moldagi leksikaga, maxsus (terminologik) ma'nosi bilan esa terminologik(chegaralangan) leksikaga oid bo'ladi: *G'o'za parvarishini sug'orish bilan mohirona bog'lab olib borish juda muhim ahamiyatga ega. Bosh kelishikdagi so'zning asosiy sintaktik funksiyasi ega bo'lib kelishdir.*

Atamalar, yuqorida aytilganidek, kasb-hunarga, ilm-fanga doir tushunchalarni ifodalaydi. Mana shunga ko'ra atamalar ya'ni terminlar, asosan, ikki turga bo'linadi: **ilmiy atamalar** va **professional atamalar**.

1. Professional(kasb-hunarga oid) atamalar. Ishlatilish doirasi kasb-koriga ko'ra chegaralangan, ma'lum kasb-hunar egalari doirasidagina ishlatiladigan so'z va iboralar professionalizmlardir. Professionalizmlar deyarli barcha nutq stilida chegaralangan holatda ishlatiladi.

O'zbek tili lug'at tarkibining bir qismini tashkil etuvchi kasb-hunar so'zlari shu kasb egalari nutqida aktiv qo'llanadi. Adabiy tilda keng jamoatchilik o'rtasida chegaralangan miqdorda ishlatiladi.

Masalan: *To'quvchilik kasbini Nargiza juda yaxshi ko'radi.*
(3-sinf "O'qish kitobi" 59-bet)

Kasb-hunarga oid atamalarga ba'zi sohalardan misollar keltiramiz:

1. Kashtachilik kasb-hunaridan: *kashtado'zlik, chizmakashlik, yo'rmado'zlik, zehdo'zlik, popopchilik, do'ppido'zlik, zardo'zlik* va hokazo.

Masalan: *Sohiba zardo'zlikni buvisidan o'rgangan.*
(4-sinf "O'qish kitobi" 172-bet)

2. Kulolchilik kasb-hunaridan: bulbulzor (sopol tovoqlarga beriladigan naqshning bir turi), gulbo'ta (tog'dan chiqadigan ko'kimtir oq tusli loy).

Misol: *Idishga tushirilgan bulbulzor naqshidan shoh hayratda edi.*

3. Ilmiy atamalar. O'zbek xalqining fan, san'at va adabiyoti uzoq tarixga egadir. Shu boisdan ilmiy atamalar lug'at boyligimizning ancha qismini tashkil etadi.

Ilmiy atamalarning ba'zilariga misollar keltiramiz:

1. Tilshunoslik atamalari: *fonema, fonetika, urg'u, bo'g'in, metateza, leksika, frazeologiya, grammatika, morfologiya, sintaksis, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, nuqta, vergul.*

Masalan: *Frazeologiyada iboralar va ularning xususiyatlari o'rganiladi.*

2. Adabiyotshunoslik atamalari: *sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, jonlantirish, roman, hikoya, ocherk, g'azal, tuyuq, aruz, masnaviy.*

Misol: Romanda yozuvchining yozish mahorati, o'y-fikrlari, kechinmalari aks etadi.

3. Falsafiy atamalar: *idiologiya, materialism, materiya, borliq, ong.*

Namuna: Borliq bu dunyoning mavjudligi, borligini anglatadi.

2.2. Shevaga xos so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Ushbu bo'lim yuzasidan tahlil qilingan adabiyotlarda shevaga xos bo'lgan so'zlar quyidagicha talqin qilinadi:

Ishlatilishi hududga ko'ra chegaralangan til hodisalari yoki birliklari dialektizm (yunoncha *dialektos* – “Tilning mahalliy ko'rinishi”) deyiladi. Bular muayyan hududda yashovchi kishilar qo'llaydigan, o'sha yerlik aholining og'zaki nutqiga xos bo'lgan so'zlardir. Bunday leksika so'z va frazeologik ibora ko'rinishida uchrashi, fonetik va grammatik xususiyatlariga ko'ra o'ziga xoslikka egaligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, shevaga oid so'zlar unlilarning cho'ziq yoki yumshoq talaffuziga ko'ra, tovush o'zgarishiga nisbatan bir-biridan farqlanishi, grammatik shakllarning qo'llanish ma'nosi va shakliga ko'ra ajralib turishi tabiiy holdir.

Dialektizm – umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisa; shunga ko'ra bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek, adabiy tilga ham xos bo'lmaydi.

Dialektizm asosan uch turli:

1. Lugaviy dialektizm – lugaviy birliklardagi turi.

2. Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba'zi dialektlarda o'rin ma'nosi uchun *-ga*, aksincha, jo'nalish ma'nosi uchun *-da* ishlatilishi kabi).

3. Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o'zgarishiga bog'liq turi(masalan, ovoz tovushlarining ba'zi dialektlarda bir tovush o'rniga boshqa tovushning kelishi va b.).

Misol keltiramiz:

“Nilu!”deyishim bilan yarq etib qaradi-yu, arqonning bandidan sudragancha men tomonga yugurdi.

*-Senga **minnama** obkeldim! – dedim bir qo'limda limon o'ralgan gazetani quloqlagancha, ikkinchi qo'limni cho'ntagimga tiqib.*

-Nima, katta ada, nima? –dedi Nilufar halloslab.

-Ho!- Nilufar o'zini orqaga tashladi.- Oldin bering-da!

-Mayli, yarimta o'paman.

Nilufarning terlab, kir bo'lib ketgan yuzidan o'pib, saqichni uzatdim.

-Mana! O'rtog'inggayam ber...

Adabiy tilning lugátiga birinchi galda barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan leksemalar tanlab olinadi. Bu umumiy qatlam ayrim dialektlarga xos leksemalar hisobiga boyitib boriladi.

Dialektizm umumtil lugát boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi leksemalardan ham adabiy tilga saylab kiritiladi. Dialektizmlarning umumtil boyligiga aylanishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq. Masalan, shu dialektizm anglatgan ma'no uchun adabiy tilda boshqa nom bo'lmasligi kerak; agar adabiy tilda shunday ma'noni anglatuvchi leksema bo'lsa, yangi qabul qilinayotgan leksema leksik ma'no qirrasida, nutq ko'rinishlariga xoslanish belgisida va boshqa jihatlarida ayrimlikka ega bo'lishi lozim.

Biror dialektizmning adabiy tilga ko'chishini boshqa bir hodisadan – dialektizmning badiiy asarda ishlatilishidan farqlash kerak. Badiiy asarda ishlatilgan har bir leksema adabiy tilga qabul qilingan deb qaralmaydi. Biroq, dialektizmlar badiiy adabiyotda tasviriy vosita sifatida ataylab qo'llaniladi.

Jumladan: S.Ayniyning “Sudxo’rning o’limi” asardagi *kallapo’sh(do’ppi)*, *xishova(chopiq)*, *yovon(dala)*, *kunjak(burchak)*, *rafcha(tokcha)* kabilar personaj nutqini individuallashtirish uchun, *shappush*, *gulqand* kabi so’zlar esa mahalliy sheva yaratish uchun xizmat qilgan.

Shu kabi asarda sheva so’zlaridan foydalanish asarga o’sha muhit vaziyatini to’laqonli ochib berish imkoniyatini beradi.

Masalan:

“ -Ha, nega to’xtading?

-O’zingiz... -dedi-yu, yig’lab yubordi.

-Gapir, *et-beting og’rivottimi?*

-O’zingiz, haydamayman demabmidingiz?

-Kim sani haydadi?

-Nega bu yerga olib kelasiz bo’lmasa?- dedi Vitya bolalar uyining darvozasini ko’rsatib.” (4-sinf “O’qish kitobi””Bolalar uyida”,” Hazrati inson”romanidan. Rahmat Fayziy. 253-bet)

Bu misolda so’zlarni shevaga xos tarzda qisqartirib va tovushlarni o’zgartirib aytilishi kuzatilgan.Ya’ni, ”*et-beting og’rivottimi?*”, ”*sani*“ so’zlarida sheva namunalarini ko’rish mumkin.

Xuddi shuningdek:

“ Mahkam aka juvonga o’girildi, alik oldi. O’tgan safar bu ayolni ko’rmagandi. Tanimadi.

-Bizam birontasini bag'rimizga olsakmikan, deb keluvdik,- Mahkam aka.

*-Juda yaxshi o'ylabsiz, ota.**Kennoyimlar** ham shu yerdamilar?*

-Ishi chiqib qoldi. O'zim kelaverdim.

-O'g'il bolami yoki qizcha olmoqchimisiz?

-Baribir.

- Yoshroq bo'lsinmi yo eslirog'imi?

- Baribir, qizim.

(4-sinf "O'qish kitobi""Bolalar uyida"256-bet)

Bu dialogda ham yuqoridagi xususiyatlar mavjud.

Biroq shuni eng muhim ma'lumot sifatida aytish kerakki, darsliklarda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarda sheva elementlari bilan boyitilishiga emas, balki adabiy til normalariga rioya qilingan holda kitoblar yaratilishiga, nashr etilishiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu o'z navbatida bolalarni adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holatda ta'lim-tarbiya olishlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, shevalar haqidagi uslubiyatga ko'p to'xtalmaymiz.

2.3. Eskirgan so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Leksika muttasil o'sish va rivojlanishda bo'lib, unda doim yangi so'zlar paydo bo'ladi, tildagi mavjud so'zlarning ba'zilar asta-sekin eskirib boradi. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar tilda birmuncha vaqtga qadar ishlatiladi. Shunga ko'ra umumxalq tilidagi lug'at boyligining passiv so'zlar gruppasidagi eskilik bo'yog'i aniq bilinib turadigan va ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan so'zlar kiradi. Passiv so'zlar guruhiga kiruvchi eskirib qolgan so'zlarga arxaizmlar hamda istorizmlar kiradi.

Eskirgan soʻzlarni **arxaik soʻzlar** deb ham yuritishadi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar arxaizm yoki arxaik soʻzlar deb yuritiladi. Arxaik grekcha “*archaios*” soʻzidan olingan boʻlib, “qadimgi” degan maʼnoni bildiradi. Soʻz maʼnosining eskirishi va turli sabablarga koʻra uning oʻrnini boshqa soʻz olishi natijasida arxaizm paydo boʻladi.

Masalan: *kashshof* (pioner), *firqa* (partiya), *yoʻqsil* (proletar), *avaxta* (qamoqxona), *musofirxona* (mehmonxona) kabilar oʻzbek tilida bugungi kun nuqtai nazaridan eskirgan soʻzlar boʻlib, ularning oʻrnini yangi soʻzlar egallagan.

Misol: *Musofirxona* odamlar bilan gavjum edi.

Arxaiklashish hodisasining koʻrinishlari:

a) soʻz butun holda holda, yaxlitligicha arxaiklashadi. Bu **leksik arxaizm** deyiladi: *gardun*(osmon), *dovot*(siyohdon),.

Misol: *Gardunda* bulutlar quyuq,xuddi yomgʻir yogʻadigandek edi.

(4-sinf “Oʻqish kitobi” ‘Gulliverning sayohatlari’Jonaton Svift 297-bet)

Masalan: *Navoiy ilhom bagʻridan tushib, siyohdonni tokchaga qoʻyib, orom uyqusiga yotmoqchi boʻldi.*

b) soʻzning maʼnolaridan biri arxaiklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan: *nishon* soʻzining “orden” maʼnosi arxaiklashgan, u *belgi, alomat, iz, asar* maʼnolarida keng qoʻllaniladi (*nishon qoʻymoq, nishonga olmoq; undan hech nishon qolmadi*). Shuningdek, *gʻanimat* soʻzining “*qoʻlga tushirilgan narsa, oʻlja*” maʼnolari arxaiklashgan, u “*qulay, tuzuk, yaxshi*” kabi maʼnolarida aktiv ishlatiladi (*gʻanimat vaqt*). Yana: *daha* soʻzining “*shaharning bir qismi, rayoni*” maʼnosi (*daha*

boshlig'i) arxaiklashgan, bu so'z "*ipak qurti yoshi*" ma'nosida kasb-hunar leksikasida qo'llaniladi.

Masalan: *G'animat bil, bolam, diydor onlarni!* (4-sinf "O'qish kitobi" 198-bet)

Eskirib qolgan so'zlar haqida boshqa bir adabiyotlarda shunday bir fikrlar mavjud:

Arxaizmlar eskirib iste'moldan tushib qolgan, ammo o'z ekvivalentiga ega bo'lgan so'zlardir. Ularning leksik(so'z), frazeologik, fonetik va morfologik tuurlari mavjud.

Arxaik so'zlar, asosan, tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda foydalaniladi:

*Yana kimlar deng, qizchaning ota-onasi emas, unga qaraydigan xizmatkorlari uni shunday "kasal"ga chiqarib qo'yishgan ekan. Qizchaning otasi **kamer-yunker** bo'lgan ekan. Qizchaning tasavvurida bu **daha** unvoni edi.* (4-sinf "O'qish kitobi", X.K.Andersonning "Bolalar gurungi" asaridan 286-bet.)

Ma'nosi: *Kamer-yunker* – bu saroy a'yonlariga beriladigan quyi unvon bo'lib hisoblanadi; *daha* esa o'sha hududning boshlig'i ma'nosini beradi.

Arxaik so'zlarga yana bir misol sifatida xurmacha so'zini ham aytish mumkin.

Masalan: *Kampir maymunjonni yeb bo'lib:*

*-Sen menga maymunjon berding, men senga biror sovg'a qilaman. Mana senga **xurmacha**, sen faqat shuni aytishing kerak:*

*Bir, ikki, uch, **Xurmachada** shavla pish.* (4-sinf "O'qish kitobi" Bir xurmacha shavla" Aka-uka Grimmlar ertagidan parcha, 290-bet)

Ma'nosi: Xurmacha bu- ota-bobolarimiz tomonidan ishlatilgan buyum sanaladi.

Misol sifatida: *Boshida yaltiroq qalpog'i, qo'lida kamalagi bilan o'qi, orqasida sadoq'i bor.* (4-sinf "O'qish kitobi", "Gulliverning sayohatlari" Jonaton Svift, 300-bet)

Ma'nosi: Sadoq-o'qdon degan ma'noni anglatadi. Qadimda jangchilar tomonidan qo'llanilgan so'z hisoblanadi.

Eskirgan so'zlarga hozirgi o'zbek adabiy tili uchun odatiy bo'lmay, balki o'tmish, davr, tushuncha va tasavvurlariga oid nomlarga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Bunday so'zlar zamonaviy leksikadan eskilik bo'yog'iga egaligi bilan farqlanadi.

Misol: amir, devonbegi, mirshab, yonoq, zarb (ko'paytiruv), qo'mondon, ellikboshi, tumanboshi, mingboshi, qozi, lashkarboshi, paranji, o'lpon, vaqf (yerga nisbatan ishlatilib, hadya etilgan yer ma'nosini beradi), kanizak, shoh, sardoba (suv ombori) va hokazo. Bu so'zlarni odatda tarixiy asarlarda ko'proq uchratish mumkin.

Masalan:

*-Tog'am, ermak bo'lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. U kishi usta merganlar. Hayvonlarning ayniqsa, kiyiklarning xulq-atvori, qiliqlari haqida maroq bilan hikoya boshlasalar, **kulli jahonni** unutib yuboray deyman.*

(4-sinf "O'qish kitobi" "Alisherning yoshligi" Oybekdan, 126-bet)

Ma'nosi: Kulli jahon –butun jahon degan ma'noni bildiradi.

Eskirgan so'zlar ikki turga bo'linadi: tarixiy so'zlar (istorizmlar) va arxaizmlarga ajraladi.

So'zning o'zi ham, ma'nosi ham eskirib, tarixiy nomga aylanib qolgan bo'lsa, tarixiy so'z hisoblanadi: *sulton, qul, jarchi, yasovul, choriq, quloq, shayx, ark* kabi.

Masalan: Sulton o'z jarchilariga chiqargan farmonini e'lon qilishlikni buyurdi. (3-sinf "O'qish kitobi" 23-bet)

Misol: Shayx ark oldida ustalarning aql-u zakovati, mehnatsevarligiga hamd-u sanolar aytdi. (4-sinf "O'qish kitobi" 34-bet)

Misol: Podshoning Orfey degan qo'shiqchisi bor ekan. (3-sinf "O'qish kitobi", 145-bet)

So'zning o'zi eskirib, ma'nosi saqlangan va hozirgi tilda boshqa so'zlar (o'sha so'zning sinonimlari) bilan ifodalansa arxaizm sanaladi: tarx (eski nomi) - ayiruv (hozirgi nomi), *sarf -morfologiya, mujarrad –mavhum* kabi.

Eskirgan so'zlardan tarixiy voqea va hodisalarni haqqoniy tasvirlash, badiiy asarga tarixiy ruh berish, tinglovchini o'tmish davr tasavvurlari bilan tanishtirish ehtiyoji tufayli foydalaniladi.

2.4. Yangi so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Adabiy til doimo yangi so'zlar - neologizmlar bilan boyib boradi. Neologizmlar ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatda bo'ladigan o'zgarishlar, fan-texnika yangiliklari, san'at, adabiyot va publitistikadagi yangicha tushunchalar – umuman, jamiyatning, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan so'zlardir.

Misol: *novator, changlagich, purkagich, izchil, ziyokor, po'lat quyuvchi, yer yo'ldoshi, kosmodrom.*

Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil:

1. Tilning mavjud leksik guruhi va grammatik qonun-qoidalari bazasida yangi so'z yasash yo'li bilan. Bunda so'z yaxlitligicha neologizm bo'ladi: *payvandchi* (metal ulovchi), *cho'lquvar* (bo'z yerlarni o'zlashtiruvchi ma'nosida).

Masalan: *Payvandchining ishi barchaga ma'qul kelganligi uchun uni hurmat qilishadi.*

2. Tildagi mavjud so'zlarning leksik ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan. **Masalan:** *cho'mich* so'zining "kovsh" ma'nosi kabi:

Misol: *Ekskavatorning cho'michi shu uyumlardan osha yangi tuproqlarni irg'itadi.*

3. Boshqa tildan (asosan, rus tilidan) so'z qabul qilish yo'li bilan. Boshqa tildan so'z ikki xil usul bilan olinadi:

a) aynan qabul qilinadi: *kosmonavt, samosval;*

b) kalkalash yo'li bilan olinadi: *o'zibo'larchilik, yer yo'ldoshi, odimlovchi ekskavator, ko'targich kran* kabi.

Masalan: *Yuriy Gagarin birinchi kosmonavt hisoblanadi.*

Yangi so'zlar haqida boshqa adabiyotlarda shunday fikr beriladi:

Kundalik turmushdagi yangi hodisa va tushunchalarni, munosabatlarni ifoda qilish uchun paydo bo'lgan so'z va iboralar neologizmlar yoki yangi so'zlar deyiladi.

Misol uchun: maktab-internat, kosmodrom, kibernetika, kuni uzaytirilgan grupp va hokazo.

Masalan: *Bugungi kunda maktab-internatlarida juda ko'plab bolalar tahsil olmoqdalar.*

Musiqa jarangi quloqlarga xush yoquvchi ohangdir.

(4-sinf "O'qish kitobi" "Musicha", Abdurashid Isroilov, 147-bet)

Neologizmlar turmush tarqiqiyoti natijasida tug'ilgan, ehtiyoj tufayli yangi paydo bo'lgan va yangilik xususiyatini yo'qotmagan so'zlar hisoblanib, ularga shuningdek, *faxriy, haftanoma, tamaddixona, ilmgoh, teletasvirchi, rayosat, musiqa, ashula dastasi, ijara pudrati* kabi so'zlar kiradi. Yangi so'z tezda umumtil me'yoriga aylanishi yoki ko'p vaqt qo'llanmasdan iste'moldan chiqib eskirishi mumkin. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi munosabati bilan eskirib qolgan, iste'moldan chiqib ketgan *shirkat, chipta, tayyora, jumhuriyat, muhandis* kabi atamalar qaytadan yangi so'zlar qatoriga qo'shilmoqda. Neologizmlar ilmiy va rasmiy adabiyotlarda asosan nomlash vazifasini bajarsa, badiiy adabiyotda ma'lum uslubiy maqsadda qo'llaniladi. Yozuvchilar ijod qilgan yangi so'zlar katta ta'sir va tasvir kuchiga ega bo'ladi.

Misol keltiramiz: **Kibernetika** –*fizikaning asosiy bo'limlaridan biridir.*

(4-sinf "O'qish kitobi" 287-bet)

Fazogirlar kosmosni o'rganib, bizga tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar haqida ma'lumot berishadi. (4-sinf "O'qish kitobi" 74-bet)

Masalan:- **Mustaqillik** bo'larmish!

- **Mustaqillik** nima?

- **Mustaqillik** shu emishki, birov-birovga "Bu yerda tur! U yerga o'tir!"deya olmas emish.

- Bozor maydonida yig'ilaveringlar, **miting** bo'ladi! –dedi buxorolik yigit.

-**Miting** nima? –deb so'radi mahalliy tojik.

-**Miting** shuki, odamlar bir yerda yig'iladilar. Hukumat vakillari bu nima ekanligini tushuntiradilar.

Ma'nosi: Mustaqillik bu –istiqlol, **miting** esa anjuman, ya'ni yig'ilish deganidir.

Masalan: Robotlar *ulkan qaychilari bilan: "bunisi eshigiga, bunisi kopotiga, bunisi tomiga", deb chevarlardek bichib beradilar.*

(4-sinf "O'qish kitobi", "Assalom, Neksiya", Erkin Malikov, 9-bet)

Namuna sifatida: *Bir chiziqda saf tortgan robotlar, avtomatlar, yarim avtomatlar avtomobil loyihalashtiriladigan Asakadagi zavodda ishlab chiqariladi.* (4-sinf "O'qish kitobi" 8-bet).

Yangi so'zlar zamon ildamlashi bilan vujudga kelaveradi. Shu bois ular ustidagi izlanishlar tugamaydi.

III BOB. HISSIY-TA'SIRIY BO'YOQDOR SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

O'zbek tilida lug'at boyligidagi so'zlar so'zlovchining turli emotsional-ekspressiv (ekspressiv –lotincha ma'nodor, ta'sirli, ifodali, emotsiya-kishining his-tuyg'usi, kechinmasi ma'nolarinni anglatadi) munosabatini ifodalash xususiyatiga ko'ra ikki bo'linadi. Bular emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz (neytral) so'zlar va emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlardir.

Ma'lum tushunchanigina ifodalab, so'zlovchining turli munosabatini ifodalovchi qo'shimcha ma'no munosabatini bildiruvchi qo'shimcha ma'no jilosi bo'lmagan so'zlar emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz yoki **neytral** leksika hisoblanadi. Boshqa bir adabiyotlarda **intellektual** leksika deb ham yuritiladi.

Masalan: *kun, hafta, yil, kitob, sahna, maqom, so'z, joy, qo'shiq, qizil, oq, hamma, olmoq, kutmoq, tanishmoq* kabi.

Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'lganligi sababli har qanday janrda ishlatilaveradi va stilistik jihatdan chegaralanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra ular stilistik neytral leksika deb ham yuritiladi.

O'zbek tili leksikasida ekspressiv¹⁵ va emotsional¹⁶ rangdorlik bilan bog'liq so'zlar ko'p. **Masalan**, quyidagi so'zlar ta'sirli va ifodali bo'yog'iga ko'ra nutqqa ko'tarinki, tantanali va ulug'vor ruh kiritadi: *navqiron* (yoshlik), *istiqbol* (egallari), *mag'rur* (jaranglamoq), *muqaddas* (burch)

Misol: *Navqiron yoshlikning bebaho imkoniyatidan foydalangan, bolam..*

(2-sinf "O'qish kitobi" 62-bet)

¹⁵ Ekspressiv – lotincha *expressio* so'zidan olingan bo'lib, "ma'nodor", "ta'sirli", "ifodali" ma'nolarini anglatadi.

¹⁶ Emotsiya - lotincha *emovere* so'zidan olingan bo'lib, kishining his-tuyg'usi, kechinmasi, hissiyoti ma'nolarida qo'llanadi.

Tilda o'z leksik ma'nosi bilan his-tuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar ham bor: *sevinch*, *quvonch*, *tabassum*, *dahshat*, *hiylagar* kabi.

Masalan: Tilda *quvonch*, dilda *sevinch*, yuzda *dahshat* ifodasi bilan Naimjon kirib keldi. (4-sinf "O'qish kitobi" 74-bet)

3.1. Ijobiy baho ifodalovchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari

So'zlarning hissiy-ta'siriy ma'no ma'no xususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, *ko'pik*, *nok* so'zlari kontekstda salbiy baho ma'nosini olishi mumkin.

Masalan: Maqolaning *ko'pigi* ko'p. Bu *nok* odam (chiniqmagan ma'nosida)

So'z bir predmet yoki voqeaning nomini atashdan tashqari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya hamda hurmat, erkalash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik singari emotsional –ekspressiv ma'nolarini ham ifodalaydi. Shu o'rinda ijobiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar xususida gap boradi.

Ijobiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- a) erkalash, suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi so'zlar. Bunday so'zlarning ko'pchiligi erkalash-kichraytirish affikslari yordamida yasaladi:

Misol: *toychoq*, *qo'zichoq*, *qizaloq*, *bo'taloq*, *do'mboq*, *kenjatoy*, *bolatoy*, *opajon*, *bolagina*, *aylanay*, *o'rgilay*, *girgitton* *bo'lay* va hokazo.

Masalan: *Toychoq* o'rnidan turib *qo'zg'aldi*. (1-sinf "O'qish kitobi" 37-bet)

Namuna sifatida: *Qizaloqni* ko'rgan kampir shu zahoti unga yordam berdi. (2-sinf "O'qish kitobi" 76-bet)

Masalan: *-Aylanay, bu nima qilganing bolajonim? O'zim girgitton bo'lay, bo'talog'im!* (4-sinf "O'qish kitobi" 220-bet)

Masalan: *-Barakalla, bo'talog'im, sen haqiqiy bog'bon ekansan. Yaxshi bog'bon senga o'xshagan saxiy bo'ladi,-dedi.*

(4-sinf "O'qish kitobi", "Saxiy bog'bon"248-bet)

b) tantanali, ritorik hamda poetik so'zlar. Bunday so'zlar nutqqa dabdabali, ko'tarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vositasi hisoblangan bunday so'zlarning bunday so'zlarning ko'pchiligini arxaik so'zlar tashkil etadi.

Bu turkumdagi so'zlarga og'zaki ijodiyot – folklorlarda keng qo'llanuvchi xalq poetik so'zlarini ham kiritish mumkin. Bunday so'zlar adabiy tildagi so'zlardan o'zining og'zaki – poetik bo'yog'i va doston qo'shiqlariga xos xususiyati bilan ajralib turadi.

Misol: *alp* (pahlavon), *lopchi* (lofchi), *sinchi* (otni yaxshi biluvchi), *alqor* (tog' qo'yi), *havar* (to'g'ri, tekis, yo'l), *bedov* (chopqir ot), *ko'kalam* (ko'kalamzor), *kelbatli* (qaddi-qomati kelishgan), *halolxo'r* (to'g'ri, vijdonli).

Masalan: *Yetti iqlim alpi Mahmudning oldida dong qotib turar edi.*
(3-sinf "O'qish kitobi", 79-bet)

Misol: *Kelbatli o'g'lon butun qishloq aholisining hayotiga xavf solib turgan baloni yo'q qildi.* (4-sinf "O'qish kitobi", Hikoya, 289-bet)

Qolaversa, sinonim so'zlarda ham ijobiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar mavjud. Masalan: *yuz*, *chehra*, *jamol* ijobiy ma'no kasb etuvchi so'zlardir.

Misol: *Xolniso buvining yuzidan nur yog'ilardi.* (4-sinf, "O'qish kitobi", 95-bet)

Qizning jamoli har qanday kishini maftun etardi. (3-sinf "O'qish kitobi", 56-bet)

Bu kabi misollardan ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan so'zlar ijobiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar sanalib, nutqda ko'tarinkilik, ulug'vorlik, ko'tarinki ruh berar ekan.

3.2. Salbiy baho ifodalovchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Salbiy baho ifodalovchi so'zlar o'z nomidan ko'rinib turganidek, salbiy ma'no va mazmun kasb etadi.

Salbiy baho bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- a) jirkanish va mensimaslikni ifoda etuvchi so'zlar: *oyimcha, oyimchaxon, oyimtilla, baloxo'r, pashshaxo'rda, kerilmajon, mazaxo'rak, yutoqmoq, so'tak, soyaparvar, xomkalla, o'limtik, to'rtko'z* kabi;

Masalan:- *Oyimcha*, - deb uning yoniga keldi. Bo'lgan ko'ngilsizlikda Anvar o'rtog'ini aybladi. (4-sinf "O'qish kitobi" Hikoyadan, 87-bet)

Misol: *To'rtko'z* muyulishda **yutoqib** ketib bordi.

(4-sinf "O'qish kitobi", "To'rtko'z", 221-bet.)

Masalan: *Oyimtilla* ko'chalarni to'ldirib o'tib borardi. Shu onda uning yo'lini notanish, **turqi** sovuq bir kishi to'sdi.

- b) qarg'ish, so'kish va haqorat ma'nosini ifoda qiladigan so'zlar: *zumrasha, xumpar, tirrancha, la'nati, gazanda, simyon, bachchag'ar, oqpadar, qizitaloq, jinnivachcha, juvonmarg, go'rso'xta, baraka topmagur, qoqbosh, to'ymagur, turqing qursin...*;

Masalan: - Ha, yo'qotish kerak buni, - opam battar chiyilladi. - Uv-v, ko'zing olaymay o'l, **xumpar!** (4-sinf "O'qish kitobi" Hikoyadan, 220-bet)

Misol: *Zumrasha*, senimi, shoshmay tur?!

Namuna sifatida: - Xiralikda pashshadan ham **xirapashsha** ekansan, **tirrancha**. (4-sinf "O'qish kitobi" "Baqa bilan taqa", Aziz Abdurazzoq, 95-bet)

“ Yoki kuchin ko’rsatganmi?
Bir **g’alamis** o’rgatganmi?
Qani o’sha sindiruvchi,
Nihol umrin tindiruvchi?!
O’lgudayin qo’rqoq ekan,
Yomonlarga o’rtoq ekan...
Ko’rgan bormi,
U **beorni?!**

(3-sinf ”O’qish kitobi” ”Kim sindirdi bu niholni” ,P.Mo’mindan, 63-64-sahifalar)

Masalan: *Jinnivachcha*, shu paytgacha qayerda eding? Xavotirda o’ldim-ku!
Baloga yo’liqqur, dardisar, aytganimga kirmasang, adabingni beraman,
yashshamaqur!

d) xalq tilidagi hazil so’z va iboralar: *ahmoqqa to’qmoq* (kishining muskul kuchini o’lchaydigan asbob), *oyog’ini to’rtta qilib qo’ymoq* (uylantirish ma’nosida);

Masalan: *Bas, agar aqling bo’lsa, hunar o’rgang’il, nedinkim hunarsiz aql-boshsiz tan, suratsiz badandek. Undoq kim debdurlar: al-adab –suratil-aql.*(4-sinf, ”O’qish kitobi” ”Ota va ona haqini bilmak zikrida” Kaykovusdan, 195-bet)

Misol: *Rahima buvi nabirasiga:*

-“Qilgan ishingga yarasha javob olding. Buni “**ahmoqqa to’qmoq**” deydilar, bolam,”- deya pand o’qidi.

g) salbiy emotsional bo’yoqqa ega bo’lgan publitistik leksika. Bunday so’z va iboralar publitistikada dushman va yot oqimlarni fosh etishda keng qo’llaniladi.
Masalan, *qora guruh, sariq iblis, irqchilar, okean ortidagilar, banditlar, bosqinchilar, soxtalashtiruvchilar, yo’lchilar, imperialistlar, ma’rifat dushmanlari* kabi.

Masalan: *Qora guruh* bosqinchilari so’l tomondan bostirib kelib, hamma joyni talon-taroj qilib, xalqning ahvolini og’irlashtirishdi.

Misol: *Ma’rifat dushmanlari* har tarafni o’ragan, o’zlarining buzg’unchi g’oyalari bilan xalqning yuragiga g’ul-g’ula solib, qo’rqitishardi.

XULOSALAR

“Leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar haqida” nomli ushbu bitiruv malakaviy ishim nihoyasida shu narsani to’la mamnuniyat ila aytishim mumkinki, zimmamga yuklangan ushbu mas’uliyatli ishni qanchalik darajada uddalay olganim-bu davr hukmida ekanligi, bu izlanishlarning chegarasi yo’qligi, ilmning poyonsizligi, kengligi bir nihoya hayolimizdan o’tadi.

Boshlang’ich sinf o’qish kitobidagi matnlar asosida tahlil qilingan leksik uslubiyatni hosil qiluvchi vositalar yuqorida ushbu ilmiy ishda atroflicha ko’rib chiqildi. Shunga ko’ra shakl va ma’no munosabatiga ko’ra hosil bo’luvchi so’zlar: omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar; qo’llanish doirasi chegaralangan so’zlar: atamalar, shevalar, eskirgan va yangi so’zlar; hissiy-ta’siriy bo’yoqdor so’zlar: ijobiy va salbiy baho ifodalovchi so’zlar haqida gap bordi.

1. Omonim so’zlar shakli bir xil, ma’nolari o’zga bo’lgan so’zlardir. Omonimlar she’riyatga alohida badiiylik bag’ishlaydi. Omonimlar yordamida **tuyuqlar** yaratiladi. Bu sohada ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta.

2. Sinonim so’zlar esa ma’nolari bir xil, biroq shakli boshqa-boshqa bo’lgan so’zlardir. Sinonim so’zlarda ijobiy va salbiylik xususiyati mavjud bo’ladi.

3. Sinonimlarni qo’llashda hissiy-ta’siriy bo’yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz*, *aft*, *bashara*, *bet*, *chehra jamol*, *ruxsor*, *diydor* sinonimik qatoridagi yuz so’zi ma’nosi betaraf so’z bo’lsa, *bet*, *aft* so’zlari salbiy bo’yoqqa ega, bashara so’zida esa salbiy bo’yoq yanada kuchli, turqso’zida bashara so’ziga nisbatan ham kuchliroqdir; chehra ijobiy bo’yoqqa ega, jamol so’zida bo’yoq yanada kuchli

4. Antonimlar esa bir-biriga zid bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi qarama-qarshi so'zlardir. Antonimlar yozma va og'zaki nutqda katta ahamiyatga ega. Ular fikrini ta'sirli va ifodali qiladi. Shuning uchun ham ular ko'pincha publitistik va badiiy uslubda ishlatiladi: *urush va tinchlik, o'liklar va tiriklar*.

5. Paronimlar esa tovush jihatidan butunlay teng bo'lmasa-da, lekin aytilishida birmuncha o'xshash bo'lgan so'zlardir. Yoki boshqacha qilib aytganda, fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlardir. So'zlarning o'zaro bunday munosabatda bo'lish hodisasi paronimiya deyiladi.

6. Atamalar, shevalar, eskirgan va yangi so'zlar qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar hisoblanib, ular ma'lum doirada, ma'lum hududda va ma'lum davrga asosan ishlatiladi. Ular shu xususiyati bilan farqlanadi.

7. Hissiy va ta'siriy bo'yoqdor so'zlarning ijobiy va salbiy ma'no kasb etishi esa o'z nomidan ko'rinib turganidek, ikki yoqlama bo'ladi: erkalash, suyish va xushmuomalalik ma'nolarini bildiruvchi so'zlar ijobiylikka, jirkanish va mensimaslik ma'nolarini ifoda etuvchi so'zlar esa salbiylikka da'vo qiladi.

8. Ushbu leksik vositalar so'zning teran ma'noli, bo'yoqdor chiqishi uchun katta ahamiyat kasb etadi, so'zga fusi beradi. Shuning uchun ham leksik vositalar haqidagi izlanishlar shu bilan yakunlanib qolmaydi.

LUG'AT

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" – Toshkent 1999 -yil.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-yil.
3. I.A.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", 2011-yil.
4. I.A.Karimov. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida". "O'zbekiston" nashriyoti, T.,1995- yil.
5. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi" T., 2000-yil.
6. Qilichev E. "O'zbek tilining praktik stilistikasi", Toshkent, "O'qituvchi", 1985-yil.
7. Qo'ng'urov P. "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar", Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti.
8. Qo'ng'urov P.Q. "O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati".
9. Qo'chqortoyev I.Q. "Badiiy nutq stilistikasi", T.,-1970-yil.
10. "O'zbek tili omonimlarning izohli lug'ati" Toshkent –"O'qituvchi" 1984-yil.
- 11.M.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish", Toshkent, "O'qituvchi", 1992-yil.
12. P.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. "Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari", Toshkent, "O'qituvchi",1992-yil.
13. X.Abdurahmonov, A.Rafiyev, D.Shodmonqulova. "O'zbek tilining amaliy grammatikasi", T., "O'qituvchi" 1992-yil.

14. B.O'rinboyev, A.Aliyev. "O'zbek adabiy tili tarixi", Toshkent,"O'qituvchi", 1995-yil.
15. A.G'ulomov, M.Asqarova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, "O'qituvchi", 1987-yil.
16. Yo'ldoshev Bekmurod. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birikmalar" Toshkent.
17. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 1-qism, Toshkent, "O'qituvchi", 1980-yil.
18. "O'qish kitobi".
19. A.Shojalilov, G.Toshmatova, S.Matjonov, Sh.Sariyev,2-sinf "O'qish kitobi", Toshkent "O'qituvchi", 2002-yil.
20. M.Umarova, "O'qish kitobi" 3-sinf, Toshkent, "O'qituvchi".
21. Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Mahmudova, S.Rahmonbekova. "O'qish kitobi", 4-sinf , Toshkent, "O'qituvchi", 2003-yil.
22. M.Hamrayev. "Ona tili" (oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma) Toshkent. 2012-yil.
23. R.Ikramova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. "Ona tilidan mashqlar to'plami", Toshkent, 2009-yil.
24. E.Begmatov, A.Boboyeva, M.Asomiddinova, B.Umurqulov. "O'zbek nutqi madaniyati ocherklari", T.,1988-yil.
25. G'.Abdurahmonov, D.Xo'jayeva, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T., "O'qituvchi", 2003-yil.
26. A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov. "O'zbek tili stilistikasi", T., "O'qituvchi", 1983-yil.

27. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili", T., 2002-yil.
28. N.Qudratov. "Nutq madaniyati asoslari". Toshkent, 1993-yil.
29. E.Begmatov. "Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari". Toshkent, "Fan", 1985-yil.
30. V.V.Reshetov, S.I.Ibrohimov, U.I.Tursunov, F.Q.Kamolov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 1966-yil.
31. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, E.Tojiyev. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari". Toshkent, "O'qituvchi", 1992-yil.
32. "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati", Toshkent, "O'qituvchi", 1984-yil.